O'zbekistonning ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro qiyosiy tadqiqotlarda ishtirokini ta'minlash. O'quv jarayoniga zamonaviy o'quv dasturlari, pedagogik va aqlli texnologiyalarni joriy etish elektron modullar va masofaviy o'qitish dasturlarini shakllantirish orqali ta'lim sifatini tubdan yaxshilash.

Nogiron bolalarning ta'lim va tarbiyasidan teng foydalanish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish. Ta'lim sifati va uning mamlakatning innovatsion rivojlanish darajasiga ta'sirini baholashning milliy tizimini joriy etish. Ta'limning innovatsion ko'p tilli modelini joriy etish ta'limning ko'p tilli modeli uchun eksperimental platforma sifatida uch tilda ta'lim beradigan maktablarni yaratish. Qayta tayyorlashga muhtoj yoshlar toifasi uchun kasb-hunar kollejlarda qisqa muddatli o'qitishni tashkil etish. Masofaviy o'qitish orqali oliy ma'lumot olish imkoniyatlarini kengaytirish. Tabiiy va texnik fanlar yo'nalishlari bo'yicha talabalar ulushining ko'payishi. Kattalar uchun uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish - qo'shimcha kasbiy ta'lim, qayta tayyorlash, shaxsiy rivojlanish. Universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlarining xorijiy sheriklar bilan o'zaro aloqalarini mustahkamlash, talabalar va olimlar uchun xalqaro amaliyot dasturlarida ishtirok etish, xorijiy universitetlarda talabalarni o'qitish uchun mablag'lar va stipendiyalar dasturini kengaytirish va boshqalar.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'ktam Umurzoqov, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti rektori
2. Gerasimova A.YU. Razvitie budущего professionala v obrazovatelnom prostranstve VUZa Ekonomika i upravlenie v XXI veke, tendensii razvitiya: materialy mejdunarodnoy nauchno prakticheskoy ochno - zaочноy konferensii (SanktPeterburgskiy gosudarstvennyy ekonomicheskiy universitet -2014. - S.S. 132-134. - 453 s
3. Товстых L. Sovremennaya intellektualno-informatsionnaya revolyusiya i vozrastanie roli informatsii i znaniy . Informatsionnye resursy Rossii. – 2005. – № 11. – S.8-11.
4. Palchikov A.N. Reforma vыsshego obrazovaniya v RF Nauchnyy jurnal NIU ITMO. Seriya «Ekonomika i ekologicheskiy menedjment». 2013. № 2.
5. Tipovoe polojenie ob obrazovatelnom uchrejdении vыsshego professionalnogo obrazovaniya. (Post. Prav. RF ot 14.03.2008 g. № 71).
6. CHernilevskiy D.V., Filatov O.K. Texnologiya obucheniya v vыsshey shkole. Uchebnoe izdanie. Pod red. D.V. CHernilevskogo. M.: “Ekspeditor”, 1996.
11. Gerasimova A.YU. Obrazovatelnoe prostranstvo VUZa kak uslovie razvitiya budущего professionala Nauchnyy jurnal NIU ITMO. Ekonomika i ekologicheskiy menedjment. 2014.

## MILLIY ARMIYAMIZ MUSTAQILLIGIMIZNI ISHONCHLI HIMOYA QILISHNING CHINAKAM KAFOLATIDIR

**Mamadalimov Azimjon Xasanboyevich**

*Harbiy ta'lim fakulteti maxsus tayyorgarlik sikli o'qituvchisi, zaxiradagi podpolkovnik, dotsent.*

**Anotatsiya.** *O'zbekiston Qurolli Kuchlari respublikamiz mustaqilligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishning chinakam kafolati bo'lmoqda.*

*Eng asosiysi, milliy armiyamiz har qanday tahdid va xavf-xatarga qarshi munosib zarba bera oladigan el-yurt tayanchi va suyanchiga, yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik va sadoqat ruhida tarbiyalashning muhim institutiga aylandi.*

**Kalit so'zlar.** *“Mudofaa va xavfsizlik”, qasamyodiga sodiq, Mudofaa doktrinasi, Qurolli Kuchlar, Armiya, global iqtisodiy inqiroz, mafkuraviy immunitetni, fuqarolik pozitsiyasi, axborot makoni, axborot texnologiyalari, mudofaa qobiliyati.*

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining “Fuqarolarning burchlari” XI-bobida 64- moddasida ko'rsatilganidek: O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.


Shuningdek, “Mudofaa va xavfsizlik” XXVII-bobida 152-moddasida ko'rsatilganidek: O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi.

Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi.

153-moddasida ko'rsatilganidek: O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil topishini

Birinchi davr (1992-1995yy.) katta o'zgarishlar kiritish ko'zda tutilmagan va kerakli texnika va qurol-yarog'larga ega bo'lgan Quruqlikdagi Qo'shinlarning boshqaruv organlari joriy etildi. 1992 yil 3 iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Soveti «Mudofaa to'g'risida», «Umumharbiy majburiyatlar va harbiy xizmat to'g'risida», « Muqobil xizmat to'g'risida» qonunlar va «Harbiy qasamyod to'g'risidagi» qarorni qabul qildi.



Armiyaning tashkiliy-shtat tizimini takomillashtirish harbiy qismlar va harbiy bilim yurtlarini qayta qurish ishlari amalga oshirildi. 1992 yil 23 yanvarda Vazirlar Maqkamasining Qarori bilan Milliy gvardiya tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Maxkamasining 1992 yil 23 - sentyabrdagi 445 – sonli Qarori bilan «Qurolli Kuchlarda harbiy intizomni mustahkamlash va tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish to‘g‘risida» hamda «Harbiy qismning Jangovar Bayrog‘i to‘g‘risida», qarorlar va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Qarori bilan 14 yanvarni «Vatan himoyachilari kuni» deb e‘lon qilindi.

1994 yili O‘zbekiston Respublikasining «Mustaqillik», «Do‘stlik» ordenlarini, hamda «Jasorat», va « Shuhrat » medallarini ta‘sis etish to‘g‘risidagi Qonunlari qabul qilindi. Respublikada milliy, yuqori saviyali ofitser kadrlarini tayyorlashga muhim ahamiyat qaratildi O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi tashkil qilindi.

Yuqoridagi aytilganlardan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni bayrami munosabati bilan yo‘llagan tabrigidan xulosa qilib shuni aytish joyizki, ushbu qutlug‘ ayyom tom ma‘nodagi umumxalq bayramiga, azaldan xalqimizga xos bo‘lgan vatanparvarlik, mardlik va jasurlik kabi yuksak fazilatlar timsoliga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi.

Ta‘kidlash kerakki, milliy armiyamizning kuch-qudrati azm-u shijoatli va har ishda yetuk salohiyatli harbiy xizmatchilarimizning, bag‘rikeng va olijanob xalqimizning birligi va hamjihatligidadir. Bu haqiqatni bugungi kunda har qachongidan ham chuqur his etmoqdamiz.

Biz bahodir va dovyurak harbiylarimiz bilan – o‘zining muqaddas qasamyodiga sodiq qolib, xizmat burchini yerda ham, ko‘kda ham sharaf ila ado etayotgan yurtimizning zabardast o‘g‘lonlari bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Bizning O‘zbekistonda bundan to‘rt yil oldin harbiy qurilish sohasini tubdan isloh qilish bo‘yicha eng muhim va ustuvor yo‘nalishlarni belgilab olgan edik. Shu asosda mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish uchun keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

O‘tgan qisqa davrda yangi Mudofaa doktrinasi qabul qilindi, harbiy tuzilmalarning tarkibi va vazifalari chuqur qayta ko‘rib chiqildi, qo‘shinlarni boshqarish tizimi takomillashtirildi, milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog‘ va texnika vositalari bilan ta‘minlash bo‘yicha o‘ta muhim loyihalar amalga oshirildi.

Tariximizda birinchi marta o‘z mohiyatiga ko‘ra noyob tizim – harbiy-ma‘muriy sektorlar tashkil etildi. Bunday ish usuli joylardagi davlat hokimiyati organlarini mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlashga faol jalb etish uchun imkon

berdi. Eng muhimi, “Armiya va xalq – bir tan-u bir jondir” degan ulug‘ g‘oyani amalda ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Ana shunday sa’y- harakatlarimiz natijasida, bugungi kunda O‘zbekiston Qurolli Kuchlari respublikamiz mustaqilligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishning chinakam kafolati bo‘lmoqda.

Eng asosiysi, milliy armiyamiz har qanday tahdid va xavf-xatarga qarshi munosib zarba bera oladigan el-yurt tayanchi va suyanchiga, yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik va sadoqat ruhida tarbiyalashning muhim institutiga aylandi.

Milliy armiyamizning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligi, harbiy qudrati va salohiyatini yanada oshirish imkonini berdi.

Pahlavon va botir o‘g‘lonlarimiz xalqaro harbiy-o‘quv mashg‘ulotlari, armiya va sport musobaqalarida dunyodagi yetakchi mamlakatlarning harbiy xizmatchilariga aslo bo‘sh kelmasdan, g‘alabaga bo‘lgan irodasini yaqqol namoyish etib, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanini isbotlamoqdalar.

Biz global iqtisodiy inqiroz ta’siriga qaramasdan, harbiy xizmatchilarimiz va ularning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, harbiy shaharchalarni obodonlashtirish, ularda zamonaviy infratuzilmalar barpo etish bo‘yicha tizimli ishlarimizni izchil davom ettiryapmiz.


Harbiy xizmatchilarning oila a’zolari uchun qo‘shimcha ravishda ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratildi. 3 mingdan ziyod harbiy pensionerlar ishga joylashtirildi. Harbiy xizmatchilarning mingdan ortiq farzandlariga oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olishlari uchun davlat grantlari ajratildi.

Yangi O‘zbekistonda yosh avlodni jismoniy va ma’naviy sog‘lom, Ona Vatanga fidoyi va jonkuyar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi, shonli tariximizdan ibrat olib, undan faxrlanib yashashlari uchun barcha kuch va imkoniyatimizni to‘liq safarbar etamiz.

Jahonda mafkuraviy kurashlar keskin tus olayotgan, axborot makonida turli xavf-xatar va tahdidlar tobora ortib borayotgan hozirgi sharoitda barchamiz doimiy ogoh va sezgir, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishimiz kerak.

Ayniqsa, adashib, yot g‘oyalar ta’siriga tushgan shaxslar va ularning farzandlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va ularni sog‘lom turmush tarziga, to‘g‘ri yo‘lga qaytarishda harbiy xizmatchilarimiz davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi ishlarni yana-da kuchaytirishi lozim.

Bugun dunyoning olis va yaqin mintaqalarida murakkab mojaro va to‘qnashuvlar davom etayotgan bir paytda jonajon O‘zbekistonimizda tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash borasidagi ishlarimizni yanada samarali tashkil etishimiz shart.



Xususan, mudofaa qobiliyatimizni mustahkamlash, qo‘shinlarni zamonaviy qurol-yarog‘ va texnikalar bilan ta‘minlash, bo‘linmalarni boshqarishda axborot texnologiyalarini keng qo‘llash, jangovar tayyorgarlik va kasbiy mahoratni oshirish – bundan keyin ham ustuvor vazifalarimiz bo‘lib qoladi.

Hech shubhasiz, birgalikdagi sa‘y-harakatlarimiz bilan ana shunday ezgu maqsad va marralarga erishishga, xalqimizning tinch mehnati, osoyishta hayotini, yurtimizning musaffo osmonini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashga har tomonlama qodirmiz. Kelajak avlodni bu yo‘lda tarbiyalashda hech qachon to‘xtab qolmasligimiz kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamadolimov, A., Isa, H., & Mohamad, M. S. (2013). Practical bijective S-box design. arXiv preprint arXiv:1301.4723.
2. Hasanboyevich, M. A., Halilovich, M. S., & Ortikovich, U. A. (2022). AMIR TEMUR ARMIYASINING TASHKIL ETILISHI VA TUZILISHI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 1037-1040.
3. Hasanboyevich, M. A., Khalilovich, M. S., & Mirhokimovich, T. A. (2022). Main Problems of Military-Professional Activity Orientation of Young Students. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 4, 68-70.
4. Жўраева, Н. (2021). Chet tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. центр научных публикаций (buxdu. Uz), 8(8).
5. Uzokov, A. O., Mamadolimov, A. K., & Toshpulatov, A. M. (2021). THE TECHNOLOGIES OF COLLABORATIVE EDUCATION AND ITS COMPONENT EDUCATION DURING THE LESSON. Актуальные научные исследования в современном мире, (2-5), 50-53.
6. Йулдашев, Х. Т., Ахмедов, Ш. С., & Хайдаров, З. (2017). Исследование инфракрасной фотографической системы на основе кремния, легированного платиной. Журнал фізики та інженерії поверхні, (2, № 1), 12-16.
7. Эгамбердиев, Б. Э., Мамадалимов, А. Т., & Ковешников, С. В. (2012). Физика и диагностика поверхности. Материал поступил в редакцию 20.12, 17, 460.
8. Мамадалимов, А. Т., Оксегендлер, Б. Л., Отажонов, Ш. О., Тураев, Б. Э., Усманов, Т. А., Хакимова, Н. К., & Кадиров, Ж. А. (2002). Особенности фотопроводимости хлопковых волокон с примесью йода при освещении собственной полосой поглощения. Письма в ЖТФ, 28(14), 9-14.
9. Вахабов, Д. А., Закиров, А. С., Мамадалимов, А. Т., & Хабибуллаев, П. К. (1983). Исследование фотоэффектов в кремнии, легированном селеном. Физика и техника полупроводников, 17(11), 2035-2039.
10. Йулдашев, Х. Т., Ахмедов, Ш. С., & Хайдаров, З. (2017). Дослідження інфрачервоної фотографічної системи на основі кремнію, легованого платиною. Журнал фізики та інженерії поверхні, 2(1), 12-16.
11. Закиров, А. С., Игамбердыев, Х. Т., Мамадалимов, А. Т., & Хабибуллаев, П. К. (1992). Лазерно-стимулированная диффузия золота в кремнии. Физика и техника полупроводников, 26(7), 1282-1287.



12. Мамадалимов, А. Х. (2022). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТЭС И ТЭЦ. *Scientific progress*, 3(1), 28-30.

13. Вахабов, Д. А., Закиров, А. С., Игамбердыев, Х. Т., Мамадалимов, А. Т., Турсунов, Ш. О., Юлдашев, Х. С., & Хабибуллаев, П. К. (1988). Термодинамические свойства кремния, легированного золотом. *Физика твердого тела*, 30(7), 1979-1983.

14. Мамадалимов, А. Х., & Хасанов, И. А. Ў. (2022). ТАБИЙ ВА ИС ГАЗИДАН ЗАҲАРЛАНИШДАН ОГОҲ БЎЛИНГ!. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 782-785.

15. Єршов, С. О. (2021). Розпізнавання прихованих структур S-блоків на основі алгебраїчних властивостей операції додавання за модулем (Master's thesis, КПІ ім. Ігоря Сікорського).

16. Абдукадиров, А. Т., & Шодиев, А. А. (2020). QUYOSH ENERGIYASINI ELEKTR ENERGIYASIGA AYLANTIRUVCHI VA SHO 'R SUV VOSITASIDA ENERGIYANI TO 'PLAB VA SAQLAB TURUVCHI QURILMA (LOYIHA). *Журнал Технических исследований*, 3(6).

17. Далиев, Ш. Х., Мамадалимов, А. Т., & Бекмуратов, М. Б. (2019). ВЛИЯНИЕ АТОМОВ ЭРБИЯ, ЛАНТАНА И РОСТОВЫХ ПРИМЕСЕЙ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ РАДИАЦИОННЫХ ДЕФЕКТОВ В КРЕМНИИ. «Узбекский физический журнал», 21(4), 267-269.

18. Игамбердиев, Х. Т., Мамадалимов, А. Т., Муминов, Р. А., Усманов, Т. А., & Шоюсупов, Ш. А. (2003). Исследование фотоемкости диодов из кремния, легированного ванадием. *Физика и техника полупроводников*, 37(1), 29-31.

## OTA-ONA VA BOLA O'RTASIDAGI PSIXOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI

**Axundjanova Saida Kadirovna**

*Toshkent viloyati Toshkent tumani 20-maktab psixologi*

*"Bizni ҳамisha ўylantriб келадиган яна бир муҳим масала – бу ёшларимизнинг одоб-ахлоқи, юриши-туриши, бир сўз билан айтганда, дунёқараши билан боғлиқ. Бугун замон шиддат билан ўзгаряпти. Бу ўзгаришларни ҳаммадан ҳам кўпроқ ҳис этадиган ким – ёшлар. Майли, ёшлар ўз даврининг талаблари билан уйғун бўлсин. Лекин айни пайтда ўзлигини ҳам унутмасин. Биз киммиз, қандай улуг зотларнинг авлодимиз, деган даъват уларнинг қалбида доимо акс-садо бериб, ўзлигига содиқ қолишга ундаб турсин. Бунга ниманинг ҳисобидан эришамиз? Тарбия, тарбия ва фақат тарбия ҳисобидан"*

**Sh.Mirziyoyev**

**Annotasiya:** *Yosh avlodni jismonan baquvvat, ma'naviy ruhiy jihatidan sog'lom qilib tarbiyalash, hozirgi kunning dolzarb muommolaridan biridir.*

*Farzandlarimizni jismonan baquvvat, ma'naviy ruhiy jihatidan sog'lom qilib tarbiyalash, hozirgi kunning dolzarb muommolaridan biridir.*

*XXI-asr axborot texnologiyalari asri bo'lganligi bois, shaxslararo munosabatlar keskin jadallashib bormoqda. Internet, ommaviy axborot vositalari*

*orqali kirib kelayotgan informasiyalar insoniyatning psixologiyasiga ta'sir etmoqda. Bu o'z navbatida ma'naviy bo'shlig'i mavjud insonlarga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.*

**Kalit so'zlar:** *Tarbiya, ota ona, farzand, oila, individual, muhit, ishonchsizlik, tajavuzkor, goyaviy bo'shliq, irodasizlik, ogrilik, kamsitilish, nosog'lom oila, ajrim, beparvolik, muloqot, erkin fikr, dunyoqarash, o'smir yosh*

Ota-ona va bola o'rtasidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari

Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi ayrim psixologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari, foydali tavsiyalar

Dunyoda farzandlar tarbiyasi haqida juda ko'plab asarlar yozilgan. Aksariyat kitoblar esa nasihatlar shaklida ekanligi ma'lum. Oilada farzandlar tarbiyasini aynan bir kitob yo'li bilan olib borib bo'lmaydi. Bundan tashqari farzandlar va ota-onalar

o'rtasida yuzaga keladigan muammolar yechimining hammasini ham kitoblardan topib bo'lmaydi.

Yoshi o'tgan bir keksa kishidan "yoshlik va keksalikning nima farqi bor?" deb so'raganlarida u "yoshlik-shunday davrki-unda barcha muammolarni yechishda kishida kuch-quvvat va imkoniyat topiladi, ammo aql yetarlicha ish bermaydi. Keksalik-shunday davrki-barcha muammolarni yechishga aql topiladi, ammo kuch-quvvat yetishmaydi"degan ekan. SHuning uchun ham kattalarning yoshlarga-farzandlariga, nevaralariga va yaqinlariga doimo nasihat qilib turishlarining zamirida biz bilmagan yuqoridagi qonuniyat yotadi.

Har bir ota-ona farzandining har tomonlama to'kis bo'lishini-yaxshi o'qishini, doimo oldingi saflarda bo'lishini, saranjom-sarishtali, mehnatsevar, mard va albatta baxtli bo'lishlarini istaydi. Ammo har doim ham ular orzu qilganday bo'lavermaydi. Ularning fikricha bolalar ma'suliyatsiz, yomon o'qishadi, tartib buzishadi, kattalarning aytganlarini ular istaganday bajarishmaydi, yolg'on ishlatishadi va hokozo. Buning natijasida esa bolalar va kattalar o'rtasida psixologik ziddiyatli muammolar kelib chiqadi. Bu ziddiyatlarni bartaraf qilishga ko'pincha yo'l topilmaydi yoki har kim masalani o'zicha hal qilishga urinadi.

Bizning bolalar bilan bo'ladigan muloqotlarimiz to'laqonli ishlab chiqilmagan yoki tugal shakllanmagan. Ota-onalar va bolalar o'rtasida bo'ladigan tarbiya ssenariyga e'tiborni qarating: bunda kattalar tanqid qiluvchi va nasihat beruvchi rolini o'ynasalar, bolalar esa aybdor va tinglovchi rolini o'ynaydilar. Natijada kattalar o'zlarini men haqman, to'g'ri tarbiya beryapman, deb hisoblasalar, bolalar esa o'zlarini kamsitilgan, barcha narsalardan mahrum qilingan deb hisoblaydilar. Biz bolalar bilan bo'ladigan muloqotni o'zimizning dunyoqarash bilan emas, balki bolaning dunyoqarashi bilan olib borsak natija qanday bo'ladi?

Ko'pchilik ota-onalar bolalarni maqtashni yaxshi ko'radilar. Masalan sakkiz yoshli

1)To'g'ri maqtov: "Sening yozgan she'ring juda yaxshi chiqibdi, menga juda yoqdi".

2)To'g'ri maqtov: "Buzilgan stol juda yaxshi taxlangan, xuddi yangiday bo'libdi,

Bola: "Men duradgorlikka qiziqaman, uyda yana shunday buzilgan narsalar bo'lsa ularni ham tuzataman".Xuddi yuqoridagiday bolaga to'g'ri bildirilgan tanqid uni yaxshi yo'lga boshlasa, noto'g'ri bildirilgan tanqid esa uning tarbiyasiga teskari ta'sir qiladi. Xuddi maqtov singari tanqidlar ham bolaning shaxsiga emas, uning qilgan ishiga qarab yo'naltirilishi kerak. yetti yoshli Sitora onasi bilan xolasining tug'ilgan kuniga guldon olib borishmoqchi edi. Sitora ehtiyotsizlik qilib guldonni qo'lidan tushirib sindirdi. Bunday paytda ona tanqidni uning o'ziga emas, balki sodir bo'lgan voqeaga yo'naltirishi kerak.

Masalan: Noto'g'ri tanqid natijasida bola o'zini va o'zgalarni yomon ko'rib qoladi, asabiylashadi, stress bo'lib yuradi. Keyinchalik biron xato ish qilib qo'ysa uni kattalarning ko'zidan yashirishga harakat qiladi. Chunki kattalar uni yana jerkib berishlari mumkin. Bunday holatlar esa bolaga yoqmaydi, albatta.

Haqoratni o'zga shaxsni kamsitish, yerga urish uchun ishlatiladigan "hujum" deyish mumkin. Lekin haqoratlar bola shaxsiga yo'naltirilishi mumkin emas. Tanqidga aksjavob bo'lmasligi mumkin, ammo haqoratga nisbatan qarshi tomondan xuddi shunday tonda munosabat bildirilishi mumkin. Bu esa o'z navbatida ikkala tomon o'rtasida kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Kimdir bolaga nisbatan birinchi marta: "buncha lapashang bo'lmasang", degan iborani ishlatsa, bola ham birinchi marta "yo'q, men lapashang emasman", deyishi aniq. Lekin yuqoridagi ibora bolaga nisbatan yana takror aytilaversa, bolada "men haqiqatdan ham lapashang ekanman", degan tushuncha paydo bo'ladi. Bola esa asta-sekin tezkorlik talab qilinadigan o'yinlardan va ishlardan o'zini olib qochadigan bo'lib qoladi.

Keling, endi ota-onalar va maktabning o'zaro hamkorligi to'g'risida fikrlashib olaylik. Har bir ota-ona farzandining yaxshi o'qishi, yaxshi xulq-atvorga ega bo'lishi va kelajakda uning kamolini ko'rishni istaydi, albatta. Lekin bunga erishish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Bu masalada ikkala tomonning: maktabning va ota-onaning teng ravishda majburiyalari va hissalar bor. Maktab davlatning ta'lim-tarbiya muassasasi sifatida oilaviy tarbiyaga katta ta'sir ko'rsatadi. SHunga ko'ra har bir ota-ona o'quv muassasining bolasining tarbiyasi va o'qishi borasida maktabning ko'pgina talablarini bajarishga ma'suldir. Farzandi maktabda o'qiydigan har bir ota-ona o'zini shu maktabning a'zosiman, deyishga haqli.

Ko'pgina ota-onalar farzandlarining yaxshi o'qimasligiga o'qituvchilar aybdor deb hisoblaydilar. Bir tomondan olganda ota-onaning e'tirozida jon bor. Biz ko'pincha ota-onalar va maktabning o'zaro hamkorligi haqida umumiy gaplarni gapiramiz. Aslida esa bu hamkorlik qay tarzda yo'lga qo'yilishi to'g'risida ko'pchilik yaxshi bilmaydi. Ota-onalar yig'ilishlarida o'quvchilar muhokoma qilinadi: yaxshi o'kiydiganlarga rahmat aytilsa, yomon o'kiydiganlar tanqid qilinadi, kichik moliyaviy masalalar muhokoma qilinadi. Ota-onalar va sinf rahbarlarining o'zaro hamkorligini amalga oshirishda o'qituvchilar quyidagilarni amalga oshiradilar:

1) sinf rahbarlari va fan o'kituvchilari uy vazifalarini bajarmay kelgan o'kuvchilarni o'rganib ularning kundalik ro'yxatini shakllantirib boradi;

2) sinf rahbari yuqoridagi ro'yxat asosida o'quvchilarning uyiga tashrif buyuradi hamda:

bolaning uyida dars tayyorlashga sharoit yaratilganmi, kitoblarini saqlaydigan joyi majudmi?

bolaning uyda dars tayyorlashi kim tomonidan nazorat qilinadi?  
bola uyda har kuni necha soat dars tayyorlaydi?  
badiiy kitob o'qiydimi? Nechta badiiy kitobi bor?  
o'quvchining maktabdan tashqari vaqtdagi kun tartibi nimadan iborat? ekanligini to'g'risida ma'lumotlarni to'playdi.

Shundan keyin sinf rahbari grafik asosida har gal 3-4ta ota-onani maktabga taklif qiladi. Ota-onalar farzandlari o'qiydigan siflarga darslarga kiradilar, bolasining dars jarayonidagi faolligini o'z ko'zlari bilan ko'radilar. Sinf rahbari esa har bir ota-ona bilan individual suhbat o'tkazib bolaning maktabdan keyingi kun tartibi to'g'risidagi barcha tafsilotlarni bilib oladi.

To'plangan ma'lumotlar o'rganib chiqib shunday xulosaga keldim. Farzandining ilm olishi va tarbiyasiga befarq bo'lgan oilada unib-o'sayotgan bolalarning past baholarga o'qishi, o'qishga qiziqmasligi va tarbiyasida kamchiliklar borligi aniq bo'ldi. Zudlik bilan mazkur masalada metodik kengash o'tkazdik va o'qituvchilarga aniq topshiriqlar berdik. Muntazam dars tayyorlamay keladigan o'quvchilarning ota-onalariga farzandining uy vazifalarini bajarmasdan kelishi, o'qishi pasayib borayotganligi haqida ogohlantirib, bolalarining uyda dars tayyorlashi kattalar tomonidan qat'iy nazoratga olinishi, uyda oilaviy dars tayyorlashni tashkil qilish lozimligi, aks holda bolani qo'ldan berib qo'yishi mumkinligi to'g'risida suhbatlar o'tkazdik, xatlar yo'lladik, telefon orqali ogohlantirib bordik. Oradan bir hafta-o'n kun o'tib ijobiy o'zgarishlar sezila boshladi. Dars tayyorlamay keladigan o'quvchilarning soni keskin kamaydi.

Oddiy qishloq ayoli bilan o'tkazgan yarim soatlik suhbat miyamda ko'pdan beri yechilmay kelayotan muommmolarni ochib tashladi. Bunday oilalardan har birimiz o'rnak olsak arziydi.

Qirq besh minutlik dars jarayonida o'quvchi rejalashtirilgan material bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni ololmasligi tayin. CHunki bir soatga mo'ljallangan darsning tashkiliy qism, uy vazifani so'rash va uy vazifasini tushuntirish berish etaplariga istaymizmi-yo'qmi kamida 15-20 minut sarf bo'ladi. Qolgan vaqt esa qolgan o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishiga yetmaydi. SHuning uchun ham o'quvchilar bo'sh vaqtda ota-onalarining nazorati ostida dars qilishlari zarur.

Maktab o'qituvchilarining ko'pchilik qismi esa darsni yaxshi o'tadi, yaxshi tushuntiradi, dars jarayonida o'zi faollik ko'rsatadi va bu bilan darsni "zo'r" o'tdim deb ko'ngli taskin topadi. Lekin o'qituvchining o'quvchini mustaqil fikrlashga, o'ylashga, ijod qilishga, jalb qilishga vaqti ham, sabr-toqati ham yetmaydi. O'quvchi bunday narsalarga vaqtni faqat uyida topadi. O'qituvchilar uy vazifalarini oila

davrasida muhokama qilib bajaradigan shaklda bersalar qanchalar maqbul ish bo'lar edi?!


Shu yerda ota-onalar bilan ayrim fikrlarimni o'rtoqlashmoqchiman.

Oila boshliqlari, farzandlaringiz bilan har kuni bir-ikki soat kitob o'qish, dars tayyorlash, bolaning uy vazifalarini bajarishini nazorat qilishni, mustaqil ishlashini oilaning qat'iy kun tartibiga kiriting va zarurat bo'lmasa uni buzmag. Qachonki bolangiz mustaqil o'qib, o'qigan narsasining mazmunini aytib bera oladigan bo'lsa va badiiy kitoblar mutolaa qilayotgan bo'lsa o'zingizni baxtli ota-ona deyishingiz mumkin. Shunday oilada kamol topgan o'g'il-qizlar albatta siz orzu qilgan darajadagi farzandlar bo'lib yetishadilar.

-Tajavvuzkor bo'lib qolish ,o'z-o'ziga ishonchsizlik ,o'z-o'ziga yuqori baho berish yakkalanib qolish, hayotdan sovib ketish, irodasizlik, o'g'irlik, ichkilik -chekishga ruju qo'yish,o'z joniga suiqasd qilish,yot g'oyalarga berilish,ommaviy madaniyatga berilish,Jinoyat qilish g'oyaviy bo'shliq mavjudligi:

Afsuski, bu jummalarni yana ko'proq davom ettirsak bo'ladi. Bularning barchasi ota-onaning noto'g'ri tarbiyasi, oilaviy davom etadigan nizolar, ota-onaning ajrashishi, moddiy etishmovchilik, boshqalardan ajralib turadigan nuqson mavjudligi,nosog'lom oila, noto'liq oila, atrof-muhitning, ustozining, tengdoshlarining salbiy ta'siri natijasida kelib chiqadi. Shu o'rinda ota-onaning ayrim yo'l qo'yadigan xatolarini ko'rib chiqsak: Ota-ona: "Bolamni hech kimdan kam qilmay deb, hech narsaga zoriqtirmay" deb farzandini qarindoshlarning qo'lga tashab, chet elga pul topish maqsadida ketadi, lekin bolasining tarbiyasi o'zgarayotganini, ularning ota-ona mehriga to'ymayotganligini sezishmaydi. Bu bolada salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Yoki turmush sinovlariga bardoshlari etmay, ota-onadan bolalarning tirik etim qolishi, otalarning ichkilikka ruju qo'yishi va bolalarning tarbiyasiga eitbor bermaslik. Bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Nima uchun oilaga ko'p to'htalyapmiz, boisi, farzand ko'p vaqtini oilada o'tkazadi. Xalqimizda shunday naql bor: "Qush inida ko'rganini qiladi" degan. Farzandini boshqa bolasi bilan yoki tengdoshlari bilan solishtirish. Farzandlar o'rtasida o'zaro ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Ayrim hollarda kuzatamiz ota-ona farzandi bilan birgalikda turli saviyasiz, ma'nosiz, urush-o'limni targ'ib qiluvchi turk seriallarini

tomosha qilib o'tirishadi. Farzand bu kinolardan to'g'ri xulosa chiqaradi deb kim kafolat bera oladi? Farzandni mehnatga o'rgatish ham tarbiya hisoblanadi. Agar bola maktabga borsa, uy ishlari bilan shug'ullansa, charchashi va dam olishi mumkin, bekorchi narsalarga bo'sh vaqti qolmaydi. Xuddi shuningdek, farzand tarbiyasiga ota-ona bilan birgalikda biz pedagog, psixologlar ham birdek mas'ulmiz. Ularning



tarbiyasiga ota-ona kabi pedagog hodimlar ham ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yishi mumkin. Sinfda barcha o'quvchining oldida haqorat qilishi, tanbeh berishi, barcha o'quvchilarni bir ko'zda ko'rmasligi va hakazo. "Barchaning oldida berilgan nasixat bu kamsitilish bilan barobar" deyishadi olimlarimiz. Shuning uchun individual suhbatlashish lozimdir. O'quvchi bilan ishlashda uning o'ziga xos individual xususiyatlariga tayanish lozim. Individual yondashuvning vazifalari bola rivojlashini individual usullari, imkoniyatlari, shaxsiy faolligini oshirish, uni shaxsini betakrorligini ochib berishdan iboratdir. Muhimi bolani o'ziga xos individual xususiyatlari bilan kurashish emas, balki ularni rivojlantirish, bolani potensial imkoniyatlarini o'rganish va tarbiyaviy ishlarni individual rivojlantirish prinsipi bo'yicha qurish darkor. Bolalar bilan ishlayotganda ularni har bir toifasiga qanday millatga xosligi, dunyoqarashi, dinidan qat'iy nazar ishonch uning qiziqishlarini hisobga olib, unga ochiq ko'ngillik bilan munosabat o'rnatish lozim.

Bugungi kunda jamiyat hayotida sodir bo'layotgan voqea-hodisalar haqida tezkor xabar berishning o'zi yetarli emas, zamonaviy dunyoda odamlar oila iqtisodi muammosiga tobora ko'p duch kelmoqda. Keyingi yillarda ro'zg'orda yuzaga kelayotgan iqtisodiy muammolar oiladagi shaxslararo munosabatlarga salbiy ta'sir etishi bilan birgalikda farzandlar bilim saviyasining pasayishiga xam olib kelmoqda. Ba'zi odamlar ularni osonlik bilan boshdan kechirishadi, lekin ba'zi juftliklar uchun bu ajralish bilan tugaydi.

Jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Xususan, axborot texnologiyalari shiddat bilan bilan rivojlanib, o'sib borayotgan bir paytda yosh avlodni tarbiyalash, ularda ijobiy fazilatlarini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi, Zero, Internet orqali butun dunyo bo'ylab turli axborotlar almashinuvi o'smirlar ongiga, dunyoqarashiga turli tomonlama (salbiy va ijobiy jihatdan) ta'sir etayotgani hech birimizga sir emas.

Bugungi kunda xalqaro axborot ko'lami, uning zamonaviy xususiyatlari va o'ziga xos doirasi, xalqaro munosabatlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish ko'laming oldingi safga chiqishi ijtimoiy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Bunda oila va oliy ta'lim hamkorligi asosida o'smirlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.


Shu o'rinda aytish joizki, O'zbekistonda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun bilan axborotlashgan jamiyatni shakllantirish jarayoni qonuniylashtirilgan va nazoratga olingan. Jumladan, mazkur Qonunning 4-moddasida axborotlashtirish

sohasidagi davlat siyosatining aniq yo‘nalishlari belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unga ko‘ra, mamlakat fuqarolarining axborotni erkin olish va tarqatish, axborot resurslaridan erkin foydalanish huquqlari ta‘minlanadi. Shu bilan birgalikda, O‘zbekistonda axborot xavfsizligi va jamiyatni axborotlashtirish masalasida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) hamda uning qoshidagi OKMBM (Ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo‘yicha Markaz) tomonidan doimiy ravishda axborot maydoni monitoringi olib boriladi, axborot xurujlarini vaqtida bartaraf etish ishlari amalga oshiriladi, jumladan:

- oilada o‘smir yoshlarni tashqi axborotlardan himoya qilish maqsadida ularda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish;
- tarbiyaviy vositalar va axloqiy me‘yorlar orqali o‘smirlarda axborot xurujlariga qarshi o‘z-o‘zini himoyalashning profilaktik tizimini takomillashtirish;
- o‘smirlarning axborotlarni saralash ko‘nikmasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ular yashayotgan oilaviy muhit nuqtayi nazaridan o‘rganish;
- ularning xulq-atvorida hushyorlik va ogohlik fazilatlarini shakllantirish, oilada va ta‘lim sohasida ijobiy ijtimoiy, ma‘naviy, psixologik muhitni yaratishning metodik-uslubiy tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son , 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son , 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF- 5712-son , 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son , 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarg , hamda 2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son, Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi PQ-146-son qarori , O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta‘lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 175- son qarori , O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oila





institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 820-sonli Qarori, ham muammoning dolzarbligini belgilaydi.

Oila va ta‘limning o‘zaro integratsiyasi chambarchas ravishda bir-birini to‘ldirib boradi[12]. Mazkur Farmonlar va qarorlar ham o‘smirlarda hushyorlik hamda ogohlik fazilatlarini rivojlantirish, ma‘naviy dunyoqarashini shakllantirishda oila va ta‘lim muassasalarining hamkorlikdagi faoliyatini taqozo etadi.

Oila va ta‘lim masalasida ilm-ma‘rifatga, ijtimoiy dunyoqarashni boyitishga qaratilgan, milliy tafakkur bilan sug‘orilgan asarlari bilan ma‘naviy-falsafiy g‘oyalarni ilgari surgan Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Cho‘lpon kabi jadid ma‘rifatparvarlik harakati namoyandalarning qarashlari ham alohida ahamiyatga egaligini ta‘kidlash zarur. Xususan, bunga ma‘rifatparvar adib Abdulla Avloniyning “Ilm, axloq va harakat – yoshlar uchun ziynatdir” , – degan fikri hamda Abdurauf Fitratning oiladagi ma‘naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlashtirishga doir mulohazalari misol bo‘ladi.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, ta‘limning rivojlanishi bevosita mamlakatning barqarorligi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, axloqiy, maishiy, texnologik va axborot kabi sohalarning o‘zaro bog‘liqligi va mavjudligi asosida shakllanadi.

Ijtimoiy pedagogikaning ta‘lim tizimida tutgan o‘rni alohida ahamiyatga molikdir . Chunki uning asosiy vazifasi o‘smir yoshidagi bolalarning intellektual bilim darajasi va tarbiyasi, shuningdek, ijtimoiy dunyoqarashini shakllantirish hamda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirishni ta‘minlashga qaratilgan. Zero, o‘smir yoshidagi bolalarning hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish ilmiy nuqtayi nazardan ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

Oilada o‘smirlar tarbiyasi va o‘ziga xosligi mavzusi O.Kont, T.Gobbs, Dj. Lokk, E.Dyurkgeym, Z.Freyd, M.Veber kabi klassik olimlar, shuningdek, V.Shtern, J.Piaje, A.S.Makarenko, T.F. Yefremova, S.M.Solovyov , o‘zbek olimlaridan N.M.Egamberdiyeva ar tomonidan o‘rganilgan. V.M. Karimova, X.G. Sharafutdinova o‘smirlarning o‘ziga xosligi va ular bilan ishlashning pedagogik usullari borasida izlanishlar qilishgan.

Ta‘lim jarayonida o‘zlashtirishning muvaffaqiyati quyidagilarga bog‘liq: 1. Ta‘lim mazmuniga. 2. O‘quv rejalari, dasturlari, dasrliklar va o‘quv qo‘llanmalarining mavjudligiga. 3. Ta‘lim metodikalarining takomillashganligiga. 4. O‘qituvchi mahoratiga. 5. O‘quvchining individual psixologik xususiyatlariga.

Mazkur masalani o‘rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, respondentlarning asosiy qismi ta‘lim sifatidan yetarli darajada qoniqmasligi sohadagi muammolardan darak bermoqda. Mazkur muammolar, o‘z navbatida,

o'smirlarning bilimi, dunyoqarashi, jumladan, ogohlik va hushyorlik fazilatlarining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi.


O'qituvchi tomonidan darslarning monolog shaklida o'tilishi va qat'iy tartib-intizomning talab etilishi aksariyat o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini so'ndirmoqda.

O'smirlarning javoblari asosida darslarning qiziqarli bo'lishi uchun ustoz va o'quvchilar o'rtasida muloqot o'rnatilishi, mavzular muhokama qilinishi, o'qituvchilarning yangi zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi hamda yangi multimedia texnologiyalari vositasida darslar qizg'in o'tilishining muhim ahamiyatga egaligi namoyon bo'ldi.

O'smirlarning har ikkinchisi (55%) dars davomidagi muloqot ularning fikrlash qobiliyatlarining oshishiga va darslarning qiziqarli bo'lishiga sabab bo'lishini qayd etgan. O'qituvchilar bilimlarini oshirish, yangi zamonaviy bilimlar bilan boyitish orqali darslarning saviyasi ortishiga 45 foiz o'smir ishonadi. Shuningdek, 40 foiz respondent yangi multimedia texnologiyalaridan foydalanilsa, darslarga qiziqish darajasi ortadi, deb o'ylaydi. Har to'rtinchi o'smir dars o'tish usullarini yangilash lozimligini e'tirof etgan. Ota-onalar va ustozlar orasidagi ijobiy hamkorlik farzand tarbiyasida muhim o'rin egallaydi.

Ota-onalar va ustozlar orasidagi ijobiy hamkorlik farzand tarbiyasida muhim o'rin egallagan holda bugungi kunda o'qituvchilar ota-onalar bilan o'smirlarning tarbiyasi va xulq-atvori, muammolaridan ko'ra ko'proq tashkiliy masalalarda suhbatlashishi mazkur jarayonning samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Farzandning ta'minoti otaning zimmasida. Farzandni ta'minlash onaning emas, otaning burchi – buni ba'zi otalar yaxshi bilib olishlari kerak. Bolaning ta'minotidan qochayotgan ko'p otalarni ko'ryapmiz. Ayniqsa, ajrashib ketayotgan erkaklar ayoli bilan birga bolasidan ham ajrashyapti. Ayol bilan ajrashish, bola bilan ajrashish degani emas. Farzand voyaga yetguncha bu otaning bo'ynidagi qarz bo'lib turadi. Ota-ona oldidagi muhim burch – farzandga go'zal tarbiya berish, chiroyli xulq-atvorli etib voyaga yetkazish. “Ota-ona bolasiga berishi mumkin bo'lgan eng go'zal tortiq – go'zal tarbiyadir”, deb marhamat qiladi payg'ambarimiz. Bola tarbiyalashda ko'pincha onaning o'rni ta'kidlanadi. Bundan ba'zi otalar boshqacha xulosaga borib, o'zlarini bu vazifadan mustasno hisoblashadi. Bola tarbiyasini butkul ayolga yuklab, o'z mas'uliyatini ham ayolning zimmasida qoldirish odatga aylanyapti. Ayol farzandlari bilan ko'p vaqt o'tkazishi ma'lum, chunki erkakning tashqaridagi mas'uliyatlari ko'proq bo'ladi. Lekin bu ko'chada choyxonalarda, oshna-og'aynilar bilan vaqt o'tkazib, uyda telefondan bosh ko'tarmasligi kerak degani emas – ota ham farzand uchun vaqt ajratishi shart. Bola tarbiyasida er-xotin teng mas'ul. Ona



farzandni vujudida ko‘tarib yursa, katta qilsa, yuvib-tarasa, yedirib-ichirsa-yu, bolani tarbiyalashni ham to‘liq o‘z zimmasiga oladigan bo‘lsa, bundan ayolga jabr bo‘lib ketadi.

Bu yerda bundan boshqa manfaat ham bor – o‘g‘il bolalarni tarbiyalashda otaning o‘rni juda katta. O‘g‘il bola tarbiyasida onaning ko‘p ishtirok etishi oqibatida bola ayol tabiatiga xos jihatlarni o‘ziga singdiradi. Qat‘iyatsizlik, irodasizlik, qo‘rqoqlik kabi fe‘l-atvorga ega bolalarning tarbiyasiga qaralsa, ularning hayotida onalarining o‘rni ko‘p bo‘lganini ko‘rish mumkin. Avvalo, ota-ona o‘zlari shaxsiy namuna bo‘lishlari kerak. Chunki bola uyida ko‘rganini qiladi. Ularning tarbiyasi go‘zal va mukammal bo‘lishi uchun ota-onaning tarbiyasi shunday bo‘lmog‘i lozim. O‘spirinlik davrida organizmning yetuklik yoki balog‘atga yetganligi ijtimoiy tomondan uning turmush qurishga tayyor ekanligini bildiradi. Balog‘atga yetganlik belgilariga, ham jismonan, ham aqlan rivojlanganlik, mas‘uliyat va javobgarlik hissini tuyuvchi, tibbiyot jihatdan esa ikkilamchi jinsiy bezlarning to‘liq shakllanganligi, organ va organlar sistemasining takomillashganligi, qiz bolalarda homiladorlikka anatomik tayyor ekanliklari kabi belgilar bilan belgilanadi. O‘spirinlik yosh davrida qiz bolada 13 yoshdan to 18 yoshgacha, o‘g‘il bolada 15-16 yoshdan to 19-20 yoshgacha davom etadi. Ushbu davr jinsiy bezlar funksiyasini kuchayishi, ikkilamchi jinsiy organlar shakllanishining yakunlanishi bilan tavsiflanadi. Boshqa ichki sekretiya bezlarining, ayniqsa, gipofiz va qalqonsimon bezning funksiyalari ham kuchayadi. Timus bezi bundan mustasno, uning involyusiyasi davom etadi. Barcha azolar va tizimlar funksiyasi, uzluksiz rivojlanish oqibatida, sezilarli darajada takomillashadi. Ana shu davrda bolaning psixologik muammoli vaziyatlariga duch keladi. Lekin voyaga yetmagan bollarning turli korinishdagi salbiy xulq -atvorlari hozirgi kundagi eng dolzarb global muammolardan biriga aylanib bormoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Эгамбердиева Н.М. Ижтимоий педагогика. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 220 б.
2. Эгамбердиева Н.М., Зоҳидова С.Р. Бўлажак педагогларни касбий ижтимоийлаштириш жараёнларини такомиллаштиришнинг дидактив имкониятлари. Монография. – Тошкент: “Маҳалла ва оила нашриёти”. – 108 б.
3. Hasanova K., Po‘latova M., Qurbonova D. Talaba yoshlarni oilaviy munosabatga tayyorlashning pedagogik asoslari. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2019. – 168 b.
4. Каримова В. “Педагогик психология” фани (маърузалар матни). – Тошкент: ТДИУ, 2005 – 201 б.
5. Макаренко А.С. Воспитание детей в семье и школе. – Чкалов. 1941 // [https://rusneb.ru/catalog/000199\\_000009\\_005244228/](https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_005244228/)
6. Мусурмонова О., Алимардонов З.Ш., Икматуллаев Г.З., Мирзажанова Д.М. Етим ва ота-она қарамогидан маҳрум бўлган болаларни ижтимоийлаштириш. – Тошкент: “Маҳалла ва оила нашриёти”. – 62 б.
6. Нажмидинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни. – Тошкент: “Адолат”, 2016. – 224 б.
7. Умурзоқова Р.А. Ўзбекистонда оила мустақамлигининг социал омиллари. Соц. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2006.
8. Ходжаев В.Х. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti, 2017. – 416 b.
9. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонуни // <https://www.lex.uz/acts/83472>
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоий- маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-5938-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/4740345>
11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 19 июндаги “Баркамол авлодни тарбиялашда оила институти ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг таълим муассасалари билан ўзаро ҳамкорлигини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 175-сон қарори // <https://lex.uz/docs/2022620>
12. Шарафутдинова Х.Г. Ўсмир психологияси: Диагностика. Психокоррекция. – Термиз, 2017. – 82 б.

## THE INFLUENCE OF TOYS ON THE MENTAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

**Davronov Ulugbek Mirzadavlatovich**

*Teacher at Military education faculty of  
Fergana state university*


**Abstract:** *It is highlighted that both educators and parents should pay serious attention to the issue of toys, which are of great importance for their development in the lives of preschool children.*

**Key word:** *toy, lego, mosaic, board games, cut-out pictures, household, doll.*

Enter. In the 19th century, serious attention was paid to the study of the influence of toys on the child's mental development. The first research works in this direction were scientifically studied by the German pedagogue Froebel. In his research, Froebel says that it is necessary to develop the child's cognitive processes from the first days of his birth, and that the first toys of the child should be soft toys. Bright, soft balls of various colors that a child can hold in his hands tell about the positive effect on the child's psyche. About the different shapes made from clay by the child: "While playing with clay objects, they understand the relationships between them... these activities affect not only the child's thinking ability, but also his spiritual world. shows..." he says. At the end of the 19th century, according to the Russian pedagogue M. Manaseinova, the first game that a mother plays with her child should be cutting fabrics and bright colored objects.

About 100 years later, the American psychologist G.L. Landret spoke about the positive effect of clay on the child's personality; He believes that "it is a tool that removes anger, anger, and aggression."

A child's development cannot be imagined without toys. It is the toy that teaches the child to express his feelings, to study the environment, to enter into social relations, and to realize himself. Every child has a favorite toy. Compared to a toy given by adults wholeheartedly, a toy chosen by a child is considered to be his favorite, pleasant, and emotionally closer to him. A child needs a toy as much as a friend or colleague at work is necessary for adults. Every child should have such a toy that he can become a friend of the child, be able to appeal to him, punish him, show mercy, and protect him carefully. He can overcome his fear for this toy. For example, children who are afraid of the dark can be offered to enter and exit a dark



room with a toy puppy or bear. A child can punish a toy in the same way as an adult punishes it, fight it, throw it into a corner, and then take it back and sew its tail and ears. Children cannot have such a relationship with robot-transformers, Dandy, cars, Legos. Young boys and girls choose Barbie, a soft teddy bear, a kitten, a rabbit, and toys that are close to humans for "Friendship". It is necessary for a child to have a set of toys that can be emotionally perceived by him, expand his thinking, worldview, and imitate adults and fairy-tale characters. G.L. Lendret in his book "Play therapy is the art of treatment" tells what to pay attention to when choosing a toy: "A toy helps to develop a child's intelligence in all aspects, his feelings, self- helps him to understand himself, to control his behavior, to enter into mutual relations. But all toys are bought from the store. Toys made and sewn by parents with their own hands are closer and more valuable to the child.

Toys are divided into several types:


1. Lifelike toys - dolls, animal family, doll house, furniture, tableware, cars, boats, cash register, scale, telephone, medical and hairdressing tools, clock, washing machine, gas stove, television, blackboard, chalk, musical instruments, railway, etc.

2. Toys that help release aggression (anger) in a child - a set of soldiers, a rifle, a pistol, a sword, "pillows", wild animals, rubber toys, kegel, rope, hammer, and other tools.

3. Toys aimed at developing creative thinking and imagination - cubes, matryoshka, pyramid, loto, lego, mosaic, board games, cut-out pictures, handicrafts, sewing kit, scraps of fabric, colored papers, etc. .

The toy becomes the child's playing companion. The child likes the closest and most interesting toy out of everything around. This is not surprising. If we look at a child's play with a toy, during the game, the child brings any toy (doll, horse, bear) to life imaginatively, talks to it, and plays with it. If Mabodo doesn't have a toy, he can turn even a simple stick into something like a horse or a doll and play with great enthusiasm. Any toy tickles a child's emotions, satisfies his needs, uses his creative powers, and, consequently, creates new feelings, new interests and demands. In this respect, the role of the toy in the education of the child's personality is great.

Children's toys should not be decided based on what kind of toy adults like or not, but should be decided in terms of what kind of toy a child likes and needs. It is important to know what kind of toy a child needs at what age. Children need toys more than anything else. When giving toys to children, it is necessary to take into account their age, development level, ability, and at the same time, what they are most interested in.




Since the main needs of one-year-old children are the mother and her love, the toys given to them should be pleasant and soft. The best toy at this age is a toy that a child can chew on. The fact that the toys are mainly made of plastic, bright colors and sound helps the child's sensory development. It is useful to give a 1-year-old child pyramids with 3-4 sides, colored cubes in which plates of different sizes fit into each other. Acting with such toys not only increases a child's intelligence, but also creates a sense of joy and satisfaction in him. The child is happy that he can play with the toy like an adult. At this age, it is necessary to give a doll that does not fall.

A two-year-old child should be given a large colored ball, 7-8 pyramids, and soft toys. The child cannot put them to his mouth, but he sleeps with them easily. A large plastic car or box is important not only for the child to put his toys after playing, but also for forming habits of order and independence in the child. At this age, a child should have a place to play and store toys. Among the toys of a three-year-old child, you can give construction toys, Kinder-surprise, etc. As the child works together with adults and creates different forms from them, thinking operations such as analysis and synthesis are formed in the child. Children of this age demand a big bear and a big doll. They demand that lifelike toys be similar to the original. For example, a limousine must be black.

Zamonaviy moliya tizimi banklar (davlat sektori yoki xususiy sektor), moliya bozorlari, moliyaviy vositalar va moliyaviy xizmatlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Muntazam va oqilona kapital oqimlari iqtisodiyotni jadal rivojlantirish uchun judayam zarur bo‘lgan asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Moliyaviy tizimning, asosan, to‘rtta komponenti mavjud: Moliyaviy bozorlar. Ular xaridorlar va sotuvchilarga qimmatli qog‘ozlar, aksiyalar va obligatsiyalar, turli xalqaro valyutalar va derivativlarni o‘z ichiga olgan moliyaviy vositalar bilan savdo qilish vositalarini taqdim etadigan har qanday joy yoki tizimni o‘z ichiga oladi. Moliyaviy aktivlar - moliyaviy bozorlarda sotiladigan mahsulotlar moliyaviy aktivlar deb ataladi. Naqd pul, aksiyalar, obligatsiyalar, investitsion fondlar va bank depozitlari moliyaviy aktivlarga misoldir. Yer, mulk, tovarlar yoki boshqa moddiy aktivlardan farqli o‘laroq, moliyaviy aktivlar o‘ziga xos jismoniy qiymatga yoki jismoniy shaklga ega bo‘lishi shart emas. Aksincha, ularning qiymati ular savdo qiladigan bozordagi talab va taklif omillari, shuningdek, ularning risklilik darajasi bilan o‘lchanadi. Moliya institutlari - moliya institutlari investorlar va qarz oluvchilar o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradilar. Ular a'zolar va mijozlar uchun moliyaviy xizmatlar ko‘rsatadi. U moliyaviy vositachilar deb ham ataladi, chunki ular omonatchilar va qarz oluvchilar o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradilar. Investorning jamg'armalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita moliya bozorlari orqali safarbar qilinadi. Ular bozorlardan mablag‘ to‘plashni va moliyaviy aktivlarga (depozitlar, qimmatli qog‘ozlar, kreditlar va boshqalar)ga yo‘naltirishni xohlaydigan tashkilotlarga xizmatlarni taklif qiladilar. Moliyaviy xizmatlar - aktivlarni boshqarish va majburiyatlarni boshqarish kompaniyalari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar. Ular kerakli mablag'larni olishga yordam beradi, shuningdek, ular orqali iqtisodiy subyektlar samarali investitsiya qilinganligiga ishonch hosil qilishadi (masalan, bank xizmatlari, sug'urta xizmatlari va investitsiya xizmatlari). Moliya tizimi darajasiga qarab ko‘plab tarkibiy qismlardan iborat. Kompaniya nuqtai nazaridan olib

qaraydigan bo'lsak, moliya tizimi kompaniyaning moliyaviy faoliyatiga mos keladigan protseduralarni o'z ichiga oladi. Bularga misol qilib, moliya, buxgalteriya hisobi, daromadlar, xarajatlar, ish haqi va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Mintaqaviy nuqtai nazardan, moliya tizimi qarz oluvchilar va qarz beruvchilar o'rtasida mablag'larning almashinuvini osonlashtiradi. Mintaqaviy darajadagi moliya tizimiga banklar va hisob-kitob markazlari va shunga o'xshash boshqa moliyaviy institutlar kiradi. Global miqyosda moliya tizimi moliya institutlari, investorlar, markaziy banklar, Davlat organlari, Jahon banki va boshqalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'z ichiga oladi. Moliyaviy tizimlar mablag'larni taqsimlash, investitsiya qilish yoki iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida bir subyektdan boshqa subyektga o'tkazish imkonini beradi va ular jismoniy shaxslar va kompaniyalarga tegishli risklarni bo'lishish imkonini beradi. Moliya tizimining infratuzilmasi deganda moliyaviy bozor operatsiyalari aniq amalga oshiriladigan to'lov va hisob-kitob tizimlari tushuniladi. To'lov va hisob-kitob tizimlarining uzluksiz va ishonchli ishlashi iqtisodiyotda kapitalning samarali harakatiga yordam beradi va shu bilan moliyaviy barqarorlikni qo'llabquvvatlaydi. Mukammal ishlaydigan moliyaviy tizimlar moliyaviy inqirozlarga osonlikcha tushib qolmaydi va hatto qiyin moliyaviy sharoitlarda ham o'zlarining asosiy vazifalarini bajara oladi. Shunday qilib, "Moliya" jamg'armaga ega subyektlar va investorlardan pulni pulga muhtoj bo'lgan subyektlarga yo'naltirish jarayonini o'rganadi. Tejamkorlar va investorlar o'z pullaridan unumli foydalanish maqsadida foiz yoki dividend olishi mumkin bo'lgan joylarga yo'naltiradi. Jismoniy shaxslar, kompaniyalar va hukumatlar faoliyat yuritish uchun yetarli mablag'lari bo'lmaganda, kredit kabi tashqi manbalardan pul olishlari kerak. Ular o'rtasidagi munosabatlar esa judayam zarur va foydali bo'lib, ularning ikkisi ham birdek manfaat olib keladi. Umuman olganda, daromadi xarajatlaridan ortiq bo'lgan korxonalar ko'proq daromad olishni maqsad qilgan holda qarz berishi yoki ortiqcha qismini investitsiya qilishi mumkin. Shunga mos ravishda, daromadi xarajatlardan kam bo'lgan korxonalar kapitalni, odatda, ikki yo'ldan birida oshirishi mumkin: ssuda (jismoniy shaxslar) shaklida qarz olish yoki aksiyalar (turli shaklda bo'lishi mumkin: imtiyozli aksiyalar yoki oddiy aksiyalar) ni sotish yo'li bilan. Obligatsiyalar va aksiyalarning egalari institutsional investorlar - investitsiya banklari kabi moliyaviy institutlar yoki xususiy investorlar yoki chakana investorlar deb ataladigan xususiy shaxslar bo'lishi ham mumkin.

Kredit berish ko'pincha bilvosita, bank kabi moliyaviy vositachi orqali yoki obligatsiyalar bozorida notalar yoki obligatsiyalar (korporativ obligatsiyalar, davlat obligatsiyalari yoki o'zaro obligatsiyalar) sotib olish orqali amalga oshiriladi. Qarz beruvchi foiz oladi, qarz oluvchi foiz to'laydi va moliyaviy vositachi kreditni tashkil

qilish uchun farqni oladi. Bank ko‘plab qarz oluvchilar va kreditorlarning faoliyatini jamlaydi. Bank kreditorlardan depozitlarni qabul qiladi, ular bo‘yicha foizlar to‘laydi. Keyin bank bu depozitlarni qarz oluvchilarga beradi. Banklar turli o‘lchamdagi qarz oluvchilar va kreditorlarga o‘z faoliyatini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Vahobov A.V., Malikov T.S. “Moliya”. Darslik.”NOSHIR” nashriyoti,2012
2. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. “Iqtisodiyot nazariyasi”. Darslik. Barkamol fayz media”,2017
3. Malikov T.S. “Moliya”. O‘quv qo‘llanma. “IQTISOD-MOLIYA”,2018
4. Thomas F.Cargill,”The financial system,financial regulation and central bank policy”,Cambridge university press,2017
5. Kenneth R.Szulczyk,”Money,banking,and international finance”,2010
6. Thomas D.Simpson, Financial markets,banking,and monetary policy,2014

## ISHSIZLIK VA UNING TURLARI

**Yoqutjon Xudoyberganova**

*Toshkent iqtisodiyot va sanoat texnikumi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ishsizlik, uning turlari va sabablari haqida ma'lumot berilgan, ishsizlik muammosini hal qilish bo'yicha takliflar berilgan. Ishsizlik har bir mamlakatda mavjud bo'lib, ishsizlikning keskin o'sishi ham, keskin kamayishi ham iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ushbu maqolada ishsizlikka qarshi kurashda talab va taklif yondashuvlari yoritilgan, shuningdek, Qashqadaryo viloyati misolida ishsizlikni kamaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ishsizlik, ishsizlik turlari, friksion ishsizlik, tarkibiy ishsizlik, davriy ishsizlik, ishsizlik darajasi, fiskal siyosat, pul-kredit siyosati.*

Iqtisodiy nuqtai nazardan ishsizlik deganda ishchi kuchining ish bilan ta'minlanmaganligi va natijada qonuniy daromad manbai bo'lmagan muayyan (muayyan) holat tushuniladi. Xalqaro tashkilotlar ta'rifiga ko'ra, "ishsizlar" - bu ishi bo'lmagan, ishlashga tayyor va ish qidirayotgan fuqarolar. Ishsizlik murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo'lib, ishchi kuchi taklifi bilan unga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi sifat va miqdor jihatdan nomuvofiqligini aks ettiradi. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligini ta'minlash to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, shaxsni ishsiz deb tan olish uchun bir vaqtning o'zida quyidagi to'rtta shart bo'lishi kerak. Birinchi shart - fuqaro mehnatga layoqatli bo'lishi va amaldagi qonunchilikka muvofiq pensiya olish huquqiga ega bo'lmasligi kerak. Ikkinchi shart - fuqaroning ish joyi yoki ish haqi (mehnat daromadi) bo'lmasligi kerak. Uchinchi shart - fuqaro mehnatga tayyor bo'lishi kerak. To'rtinchi shart - fuqaro barcha tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda, ish uchun ariza beruvchi sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatdan o'tishi kerak. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida mehnat kabi ishlab chiqarish resurslaridan to'liq va oqilona foydalanish va shu munosabat bilan ommaviy ishsizlikning oldini olish, ishsizlikni qisqartirish bo'yicha intensiv sa'y-harakatlarni amalga oshirish davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ommaviy ishsizlikning asl sabablari nimada ekani borasida iqtisodchilar orasida kelishmovchilik mavjud. Ma'lumki, J. M. Keynes «...ishsizlikka qarshi kurash vositasi sifatida ish haqini pasaytirish g'oyasini qat'iyan rad etadi va sof eksportdan tashqari umumiy talabning asosiy qismini, shu jumladan investitsiyalar, davlat xarajatlari va iste'mol xarajatlarini qoplaydigan umumiy talabdan tushadigan daromadlardir. ».



Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda ishsizlikning paydo bo'lishi va o'sishi tarixi Keyns qarashlarining to'g'riligini isbotlaydi. Ishsizlar rasmiy ro'yxatga olinganidan beri ishsizlik darajasi ma'lum darajada barqaror o'sib bormoqda: bandlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ishsizlik darajasi past bo'ladi. Ish bilan bandlikning keskin qisqarishi iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar (davlat sektorining qisqarishi), inflyatsiya, tadbirkorlikning muqobil shakllari (xususiy korxonalar, aktsiyadorlik jamiyatlari) yetarli darajada o'smaganligi sababli ko'plab korxonalarining moliyaviy ahvolining yomonlashishi natijasida yuzaga keladi. ). Bularning barchasi, albatta, umumiy talab hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi: davlatning ta'siri kamayadi, investitsion faollik sekinlashadi va inflyatsiya tufayli turmush darajasining yomonlashishi tufayli iste'mol xarajatlari biroz kamayadi. Qoidaga ko'ra, G'arb iqtisodchilari iqtisodiy o'sishni bandlikning o'sish sur'ati bilan, retsessiyani esa ishsizlik darajasining oshishi bilan bog'lashadi. Darhaqiqat, sanoat tipidagi normal faoliyat ko'rsatadigan bozor iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish doimo sanoatning rivojlanishi va kengayishini, demak, aholi bandligini oshirishni anglatadi. Biroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda bunday munosabatlar aniq emas. Masalan, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatning jadal o'sishi ish bilan bandlikning mos ravishda kengayishiga olib kelmadi. Iqtisodchilar bu hodisani sanoat o'sish sur'atlaridan sezilarli darajada yuqori bo'lgan urbanizatsiya sur'ati va qishloqlardan shaharlarga ko'chib o'tayotgan aholining malakasi pastligi bilan bog'lashadi. O'zbekistonda keyingi yillarda ishsizlik soni va darajasi nisbatan qisqargan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich hamon salbiy va muammoli darajada qolmoqda. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra, 2009 yil 1 yanvar holatiga mamlakatimizda ishsizlar soni 320,2 ming kishini, ularning iqtisodiy faol aholi tarkibidagi ulushi esa 3,0 foizni tashkil etdi. . . Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona, Andijon, Namangan, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari hamda Toshkent shahriga respublikadagi umumiy ishsizlar sonining asosiy qismi to'g'ri keladi. Shuningdek, ishsiz fuqarolarning asosiy qismi qishloq aholisidir.

Ishsizlikning turlari shakli, kelib chiqishi, mazmuni, namoyon bo'lishi, davomiyligi va bandlik maydoniga ko'ra farqlanadi. Ular paydo bo'lishiga ko'ra, ishqalanish, tarkibiy, mavsumiy va davriy ishsizlikni ajratadilar. "Majburiy ishsizlik" tushunchasi bilan bir qatorda "ishsizlikning muqarrarligi" tushunchasi ham mavjud. Bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq, lekin ayni paytda ular o'rtasida tub farq bor. "Muqarrar ishsizlik" tushunchasi xoh u Keynschilar, xoh yangi keynschilar, xoh monetaristlar va boshqalar bo'lsin, u yoki bu shaklda barcha maktab va yo'nalishdagi G'arb iqtisodchilarining ishlarida mavjud bo'lgan.

U yoki bu shaklda mavjud edi. Friksion va tarkibiy ishsizlik ma'lum o'xshashlik va farqlarga ega. O'xshashlik shundaki, ishsizlikning ikkala turi ham har qanday iqtisodiyotga, hatto barqaror rivojlanayotgan iqtisodiyotga ham xos bo'lib, ularni butunlay yo'q qilib bo'lmaydi. So'nggi o'n yillikda kuzatilgan tarkibiy ishsizlik jarayoniga oddiy misol keltirish mumkin: kompyuter texnologiyalarining keng qo'llanilishi bugungi kunda bosmaxonalarda yozuv mashinkasi va mashinka ustida ishlaydigan texniklarni ishsiz qoldiradi. Fan-texnika taraqqiyotining jadal sur'atlarini hisobga olsak, bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Uchinchi tur - davriy (tsiklik) ishsizlik - ishlab chiqarish hajmining pasayishi tufayli ishchi kuchiga talabning pasayishi natijasida yuzaga keladigan ishsizlik. 4. Ishsizlik darajasi va davomiyligi. Ishsizlik darajasi mehnat bozorining hozirgi holati va uning ma'lum vaqt oralig'idagi o'zgarishlari haqida tasavvur beradigan asosiy ko'rsatkichdir. Ishsizlik darajasini ishsizlar sonini iqtisodiy faol aholi soniga bo'lish yo'li bilan aniqlash kerak:

Joriy statistik ma'lumotlarda iqtisodiy faol aholi soni to'g'risida ma'lumot mavjud bo'lmagan taqdirda, u xalq xo'jaligida yoki mintaqada band bo'lgan ro'yxatga olingan shaxslar soni sifatida hisoblanadi va: a) ishsizlar va ish qidirayotganlar mahalliy bandlikka ko'maklashish markazida yoki hududiy bandlikka ko'maklashish markazi soni; b) taxminan XMT usuli bo'yicha hisoblangan ishsizlar soni sifatida hisoblanishi mumkin. Aksariyat mamlakatlarda ishsizlik darajasi iqtisodiy rivojlanishning eng muhim ijtimoiy omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy fan ishsizlikning tabiiy darajasi tushunchasidan foydalanadi. Turli mualliflar ishsizlikning tabiiy darajasini turli yo'llar bilan hisoblashadi. G'arb mamlakatlarida ishsizlikning tabiiy darajasi 4-6% deb hisoblanadi. Iqtisodchilarimiz bu ko'rsatkichni 3-5 foiz deb hisoblamoqda. Turli mamlakatlarda har bir aniq davrda ishsizlik darajasi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi, bu har bir mamlakat uchun belgilangan ishsizlikning "tabiiy" darajasiga, mamlakatdagi iqtisodiy tsiklning bosqichiga, shuningdek, ishlab chiqilgan bandlik siyosatiga bog'liq. . davlat tomonidan. 5. Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida vujudga kelgan ishsizlik davriy xarakterga ega bo'lib, bu holat mamlakatdagi iqtisodiy tizimdagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq holda vujudga keldi. O'sha yillar iqtisodiy davrning tanazzul bosqichida bo'lib, ko'plab sanoat va ishlab chiqarish korxonalarini yopilgan yoki qisman quvvat bilan ishlagan. Bunday holatning asosiy sababi sobiq Ittifoq davrida mamlakat korxonalarini respublikaning boshqa korxonalarini bilan yaqin aloqada ishlagan. O'sha davrda O'zbekiston ittifoq respublikalari zavodlarini xomashyo bilan ta'minlovchi sobiq Ittifoqning asosiy xomashyo bazasi hisoblanardi. Shu bilan birga, respublikaning tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi zavodlari boshqa ittifoq respublikalaridan ehtiyot qismlar, butlovchi qismlar, xomashyo va yarim tayyor

mahsulotlar olib kelardi. Yoki O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xaridorlari va iste’molchilari ittifoqning boshqa davlatlari hisoblanadi. Ishsizlarni yangi kasblarga o‘rgatish, ularning malakasini oshirish, moddiy qo‘llab-quvvatlash va ish o‘rinlariga tavsiya etish bandlikka ko‘maklashish markazlari tomonidan amalga oshirilayotgan eng muhim ijtimoiy tadbirlardir. Aholini ishsizlikdan himoya qilish chora-tadbirlari uchta yo‘nalishda amalga oshirilmoqda: - tadbirkorlar bilan ishlash, ya'ni yangi ish o'rinlarini yaratishda soliq imtiyozlari berish; -mehnat taklifini rag'batlantirish; - yollanma ishchilar sinfini mehnat bozorida chiqarib tashlash, o'z-o'zini ish bilan ta'minlashni rag'batlantirish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Тежван Петтингер. Ишсизликни камайтириш сиёсати. 2019 йил 14 июнь  
Тежван Петтингер Юқори АД нинг иқтисодиётга таъсири. Веб саҳифа:  
<https://www.economicshelp.org/blog/571/unemployment> .

2. Сафаров С.С. Инвестициянинг иқтисодий ўсишдаги ўрни. “Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни ривожлантиришда менежмент ва корпоратив бошқарувнинг аҳамияти” халқаро илмий-амалий конференцияси маъруза тезислари тўплами. 2020-йил 20-май. –Т.: –2020. Б. 458-460.

3. Сафаров С.С. Қашқадарё вилоятида инвестиция муҳитига таъсир этувчи омиллар. ISSN2249-9512. Б. 33-36.

## BANKLARNING MUAMMOLI AKTIVLARI VA ULARNING YUZAGA KELISH SABABLARI

**Abdullayeva Vasila Yusufjonovna**  
*Toshkent iqtisodiyot va sanoat texnikumi*

**Annotatsiya:** *Bankning kredit portfelini boshqarish tijorat banki uchun ma'lum darajadagi professionallikni va kreditlashning iqtisodiy mohiyatini bilishni talab qiladigan juda muhim masaladir. Ushbu maqolada tijorat banklarining muammoli kreditlari tushunchasining mazmuni, muammoli aktivlarning paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar, shuningdek, bank kredit portfelini samarali boshqarish bo'yicha takliflar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tijorat banki, kredit portfeli, muammoli kredit, kredit portfeli sifati.*

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi samaradorligini oshirish banklarning iqtisodiyotning real sektorini kreditlashda faol ishtirok etishi bilan bog'liq. Biroq, mamlakatimiz tijorat banklari kredit faoliyatida bir qator qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda. Tijorat banklari daromadli aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kreditlar orasida muammoli aktivlarning mavjudligi bugungi kunda ayniqsa yaqqol sezilmoqda. Banklar asosan ssuda sifatida olingan mablag'lardan foydalanganligi sababli, "qarz oluvchi" dan nafaqat daromad olish, balki pul mablag'larini to'liq qaytarish masalasini ham oldindan aniqlash kerak. Chunki "bank investitsiya egasi sifatida investitsiyani sotmaydi, balki sarmoyadan ma'lum shartlar va qo'shimcha foizlar bilan foydalanish huquqini beradi". Ayni paytda mamlakatimiz ilmiy, nazariy va amaliy doiralarida "muammo" tushunchasi avvalgidan ko'ra ko'proq qo'llanilmoqda va muhokamalar muhokamaga sabab bo'lmoqda. Bu, albatta, bejiz emas, chunki bugungi kunda respublikamiz bank tizimining kredit portfelida muammoli aktivlarning ulushi ancha yuqori. Ilmiy adabiyotlarda muammoli aktivlarning bir nechta ta'riflari mavjud. Ayrim adabiyotlarda tijorat banklari faoliyatiga tavakkalchilikli kredit qo'yilmalari muammoli aktivlar ko'rinishidagi qo'yilmalar, ba'zi adabiyotlarda muammoli aktivlarning ob'ekti, predmeti va garoviga shubhasi bo'lgan banklar kreditlar deb ta'riflanadi. Shuningdek, agar berilgan kreditda ishlaymaydigan garov bo'lsa va bu garovning qiymati to'lanmagan qarz summasidan kam bo'lsa, u holda bu kredit ishlaymaydigan aktiv, subprime va subprime ssudalar esa ishlaymaydigan aktivlar qatoriga kiradi. . Ishlaymaydigan aktivlar "qoniqarsiz", "shubhali" va "yomon" deb tasniflangan kreditlardir. O'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra muammoli aktivlar

kredit risklarining haqiqiy namoyon bo'lishining natijasi, ya'ni kredit risklarini to'g'ri boshqara olmaslik oqibatidir. Shuning uchun "muammoli aktiv" tushunchasi "kredit risklari" toifasi bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun muammoli aktivlarning mohiyatini aniqlashda kredit risklarining iqtisodiy mazmuniga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir, bu esa maqsadga erishishga yordam beradi. Umuman olganda, muammoli aktivlarning kelib chiqishi nafaqat kredit riskiga bog'liq bo'ladi. Zero, valyuta tavakkalchiligi, bozor tavakkalchiligi, foiz stavkalarining o'zgarishi xavfi va boshqa risklarning mavjudligi va ularni to'g'ri baholashning mumkin emasligi muammoli aktivlarning kelib chiqishiga ta'sir qiladi. Xatarlarning roli va ta'siri muammoli aktivlarning iqtisodiy mazmunini o'rganish uchun asosdir. Bank menejmenti sohasida samarali tadqiqotlar olib borgan amerikalik ekspert Piter Rouzning fikricha, qarz oluvchining bir yoki bir nechta to'lovlarni amalga oshirmaganligi yoki kredit qiymatining pasayishi kreditning kredit sifatida tasniflanishini anglatadi. muammoli aktiv. Muammoli aktivlar to'satdan paydo bo'lmaydi, lekin ularning elementlari kreditlash jarayonida asta-sekin paydo bo'la boshlaydi. Muammoli aktivlar doimiy monitoringning yo'qligi natijasida ham paydo bo'ladi. Nazorat jarayonida qarzdorning moliyaviy hisobotida moliyaviy kamchiliklar aniqlangandan so'ng, bank xodimi korxonaga (mijozning ofisiga) tashrif buyurishi shart. Kreditdan foydalanish samaradorligi, qoida tariqasida, har chorakda joylarda, korxonalar va tashkilotlarda tekshirilishi kerak. Kredit berish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolik bankning kredit siyosati to'g'ri tuzilmaganligini ko'rsatadi. Muammoli aktiv, birinchi navbatda, kredit portfeli bo'yicha foizlar bilan kreditlarni to'lash uchun imtiyozli davrni ta'minlashda namoyon bo'ladi. Shuningdek, kredit monitoringi sohasida doimiy nazoratni amalga oshira olmaslik va natijada kredit va unga to'lanadigan foizlarni belgilangan muddatlarda to'lamaslik pirovard natijada mijozning kreditor yukining ortishiga va uning ahvoli yomonlashishiga olib keladi. mijozning moliyaviy holatida. to'lov. Muammoli aktivlar turli sabablarga ega bo'lishi mumkin. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, yo'qotishlarning 67 foizi banklarning muammoli aktivlaridagi ichki omillar bilan bog'liq. Bu ko'rsatkich tashqi omillar ta'sirida atigi 33 foizni tashkil etadi.

Bank qimmatli qog'ozlarni saqlash, saqlash uchun berilgan qimmatli qog'ozlarni doimiy boshqarish, ayirboshlash topshiriqlarini bajarish, seyflarni ijaraga berish kabi pullik xizmatlarni ham ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda turli iqtisodiy xizmatlarni sotish uchun quyidagi asosiy bank turlari faoliyat yuritadi: markaziy (emitent) bank va tijorat banki. Markaziy bank mamlakatning butun kredit tizimini nazorat qiladi, davlatning pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, naqd pul va qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqaradi, mamlakatning oltin-valyuta zaxiralarini saqlaydi, davlat va

tijorat banklariga kreditlar beradi. Tijorat banklari universal va ixtisoslashgan banklarga bo'linadi. Ixtisoslashgan bank investitsiya banki, omonat (depozit) banki, maxsus bank, kooperativ bank va boshqalardan iborat. Tijorat banki jismoniy va yuridik shaxslarga turli xil bank xizmatlarini (depozitlarni jalb qilish, veksellarga xizmat ko'rsatish, kreditlash, qimmatli qog'ozlarni sotish va sotib olish) ko'rsatadigan universal bankdir. Bu bank bank-kredit tizimining o'zagi hisoblanadi. Mulkchilik shakliga ko'ra banklarning quyidagi turlari ajratiladi: davlat banki, davlat ishtirokidagi aralash bank, davlatlararo bank, xalqaro bank, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi bank, aksiyadorlik banki, bank uyi, kooperativ bank, mahalliy mustaqil bank. o'zini o'zi boshqarish banki, kommunal bank, xususiy bank va boshqalar O'zbekiston Respublikasi bank tizimini shakllantirish va rivojlantirish strategiyasi iqtisodiyotni bozor sharoitiga bosqichma-bosqich o'tish dasturiga mos keladi. O'tgan davrda bank tizimini isloh qilish jarayonida milliy bank tizimining 2 pog'onali tuzilmasi qonunlashtirildi (yuqorida Markaziy bank, quyida tijorat banklari); banklar soni va ular ko'rsatayotgan xizmat turlari ko'paydi.

Bank tijorat tashkiloti, yuridik shaxs bo'lib, u bank faoliyati hisoblangan quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi: ✓ yuridik va jismoniy shaxslardan depozitlarni qabul qilish; ✓ olingan mablag'lardan xavfli kreditlar; ✓ investitsiyalar uchun foydalanish; ✓ to'lovlarni amalga oshirish. Demak, bank o'zida mablag'larni o'zida mujassamlashtirgan va jamg'arib boruvchi, kreditlar beruvchi, naqd pul hisobini yurituvchi, pul va qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqaradigan, oltin va chet el valyutasi bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi yirik muassasadir. Jahon banki O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining 2022-yilga o'sishi prognozini 5,3 foizgacha yaxshiladi. Biroq, 2023 yilda o'sish 4,9% ga baholanmoqda. Shuningdek, maqsadli ijtimoiy himoya dasturlari 2023-yilda qashshoqlik darajasini 14,5 foizga, 2024-yilda esa 12,2 foizga kamaytirishi kutilmoqda. Ukrainadagi urush oqibatlariga qaramay, O'zbekiston iqtisodiyoti 2022-yilda 5,3 foizga o'sishi kutilmoqda. Jahon bankinging navbatdagi hisoboti. Ta'kidlanishicha, mamlakatda moliya siyosati joriy yilda yangi zarbalar oqibatlarini yumshatish zarurligiga asoslanadi. "Agar amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar xususiy sektor o'sishini tiklashda davom etsa, o'rta muddatli o'zgarishlar ijobiy ko'rsatkichlarni qayd etishi mumkin, deyiladi hisobotda. So'nggi yillarda O'zbekistonda savdo va narxlarni erkinlashtirish bo'yicha bir qator samarali islohotlar amalga oshirildi. Biroq, bu borada qo'shimcha islohotlar o'tkazish zarur. mahsuldorlikni, xususiy sektor o'sishini va yangi ish o'rinlari yaratishni rag'batlantirishni davom ettirish. Asosiy e'tibor zaif bozor omillari, savdo va tranzit xarajatlari, monopoliyalar, tartibga solish muhiti, shuningdek, qishloq xo'jaligi va

umuman iqtisodiyotda bozor rag‘batlari va barqarorligini yanada mustahkamlashga qaratilishi kerak”, - deydi Jahon banki ekspertlari.

Bank - bu moliyaviy muassasa bo'lib, uning asosiy faoliyati pul mablag'larini jalb qilish va joylashtirish, xususan, hisob-kitoblarni amalga oshirishdir. Iqtisodiy nuqtai nazardan banklar pul bozorida mavjud mablag'larga ega bo'lganlar bilan qo'shimcha resurslarga muhtoj bo'lganlar o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi. Bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari - omonatlarni qabul qilish, kreditlar berish va mijozlarga kredit va buxgalteriya xizmatlarini ko'rsatish. Bank qimmatli qog'ozlarni saqlash, saqlash uchun berilgan qimmatli qog'ozlarni doimiy boshqarish, ayirboshlash topshiriqlarini bajarish, seyflarni ijaraga berish kabi pullik xizmatlarni ham ko'rsatadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda savdo va narxlarni erkinlashtirish bo'yicha qator samarali islohotlar amalga oshirildi. Biroq, ishlab chiqarishni rag'batlantirish, xususiy sektor o'sishi va ish o'rinlari yaratishni davom ettirish uchun qo'shimcha islohotlar zarur.

#### **FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida” gi PF -5992 sonli Farmoni, 12.05.2020 yil

2. Абдуллаев Ё., Қоралиев Т., Тошмуродов Ш., Абдуллаева С. Банк иши. Ўқув кулланма-Т.: “ИQTISOD-MOLIYA”

3. Мутабар Жураевна Темирханова, Хусан Баходирович Зарипов, Ли Шаоминь. Совершенствование цифровой мобильной связи в современном мире. Бюллетень науки и практики, 2020

4. Uchqun Yunusovich O'roqov, Odiljon Sheraliyevich Olimboyev. O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va moliyalashtirish masalalari. Science and Education, 2022

5. Ҳайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Т.: Иқтисод-молия, 2009

## GIMNASTIKA SPORT TURINING TRAMPOLIN YO'NALISHI HAQIDA

### **Rahmonova Mohinur Rasuljon qizi**

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali  
"Ko'pkurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati" kafedrasida o'qituvchisi.*

### **Nabijonova Diyora Ma'mir qizi**

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali talabasi*

**Tayanch so'zlar:** *Batut, sakrash, zarba, sinxron, yakkalik sakrash, akrobatika, salto, elementlar.*

**Ключевые слова:** *Батут, прыжки, удары, синхронные, одиночные прыжки, акробатика, сальто, элементы.*

**Keywords:** *Trampoline, jump, kick, synchronised, solo jump, acrobatics, somersault, elements*

Gimnastika sport turining 4 ta yo'nalishlari mavjud bo'lib bularga badiiy gimnastika, sport gimnastikasi, trampolin, akrobatika yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Bizga ma'lumki badiiy gimnastika asosan qizlar uchun mos sport turi lekin hozirgi vaqtda yevropada va boshqa chet mamlakatlarda o'g'il bolalar ham badiiy gimnastika musobaqalarida ishtirok etib kelishmoqda va qizlardan umuman farq qilmagan holda musiqaviy kompozitsiyalarini ma'romida ko'rsatib berishmoqda. Sport gimnastikasida o'g'il bolalar va qizlar uchun mos keladigan sport turi hisoblanadi. Bu sport turida jismoniy sifatlarning barchasi rivojlanadi va shakillanadi.

Gimnastikachilarning qaddi-qomati, sog'ligi, jismoniy kamoloti irodaviy va axloqiy, psixologik, ruhiy holatlari boshqa insonlardan ko'ra ancha yaxshi rivojlangan bo'lishadilar. Ular har qanday vaziyatda ham mustaqil va tez qaror qabul qilishadilar. Sport gimnastikasining tirik afsonaviy sportchisi Oksana Chusavitina 22-25 fevral kunlari Germaniyaning Kotbus shahrida sport gimnastikasi bo'yicha jahon kubigi bo'lib o'tdi. Oksana 8 karra olimpiyada ishtirokchisi va sovrindori hisoblanadi. Parij 2024 olimpiadasi uchun yo'llanma sertifikatini olish uchun jahon kubigida ishtirok etdi. Erkak gimnastikachilarimizdan Rasuljon Abdurahimov 22-25 fevral kunlari Germaniyaning Kotbus shahrida sport gimnastikasi bo'yicha jahon kubigida bruss yo'nalishida faxrli 3 o'rinni qo'lga kiritdi. Parij 2024 olimpiadasiga yo'llanma sertifikatini qo'lga kiritish uchun musobaqalarda ishtirok etmoqda.

Trampolin sport turida ham o'g'il bolalar va qizlar shug'ullanishlari mumkin. Bu sport ikki yo'nalishga bo'linadi. Birinchi yo'nalish bu akrobatik yo'lakchada sakrash



bu yakkalik sakrash hisoblanib uzunligi 25 metr bo'lgan eni 1,5-2 metrli sakrash yo'lakchasida sportchilar murakkab texnik harakatlar to'plamini bajarishlari kerak, jumladan oldinga orqaga salto, yon tomonlarga aylanishlar (vintlar) va x.k.z. Qoidalarga ko'ra barcha harakatlar 8 tadan ko'p bo'lmagan va oxirida salto bilan yakunlanishi kerak.

Batutda sakrash bu havoda turli akrobatik elementlardan tuzilga 10 tadan oshmagan kombinatsiyalarni bajarib berish. Bunda yakkalik, juftlik sakrash mumkin. Dastlabki bosqichda eng yaxshi 8 nafar sportchi finalga yo'l oladi. Sinxron sakrashda juftlik 2 nafar ayol sportchi yoki 2 nafar erkak sportchidan iborat. Sinxron sakrashda sportchilar harakat boshida bir xil harakatni bajarish kerak. Batut (batud) (frans. batoude, ital. battuta, aynan zarba) to'rtburchak shaklli, atrofi po'lat prujinalar yoki rezinalar bilan mahkam tortilgan "sim krovat"ga o'xshash sakrashga mo'ljallangan anjom.

Undan akrobatlar, suvga sakrovchilar, gimnastlar foydalanadi. Batutning uzunligi 5 m, eni 1,5 m, poldan balandligi 1,2 m. Batutda sakrash (yakka va sinxron juftlik) — sport turi. AQShda kelib chiqqan. Xalqaro federatsiyaga 1964-yil asos solingan, 40 ga yaqin mamlakat a'zo (1991). 1964-yildan jahon birinchiligi o'tkazib kelinadi. O'zbekistonga batutda sakrash (trampolin) yangi sport turi sifatida 1972-yil kirib kelgan. 1984-yil Toshkentdagi 3-bolalar va o'smirlar sport maktabida ilk bor batut bo'limi ochildi. T. Miroqilov batutdan birinchi sport ustasi bo'ldi (1981). O'zbekistonlik D. Polyarush o'smirlar o'rtasida Yevropa chempionatining oltin medalini qo'lga kiritdi (1987). Yana besh marta shu qita birinchiligi g'olibi bo'ldi. 1990-yil Germaniyada bo'lgan jahon chempionatida 2 oltin va 1 kumush medal oldi, 1997-yil esa Kanadada ikkinchi marta jahon kubogini qo'lga kiritdi. Sportning ana shu turida erishgan muvaffaqiyatlari uchun D. Polyarush xizmat ko'rsatgan sport ustasi, N. Jihareva (N. Aydinova) "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan trener" unvoniga sazovor bo'lgan (1991). Trampolin sporti bo'yicha 2024 yil fevral oyida Bakuda o'tkazilgan jahon kubigida ham yurtlarimiz ishtirok etishdilar. Sinxron erkaklar juftligida M. Xasanboyev va Y. Mo'minovlar musobaqada yaxshi natijalarni qo'lga kiritishdi. Trampolin bo'yicha bosh murabbiyimiz B. Axmadaliyev va Y. Xilko sudyalik qilishdilar.

**XULOSA:** Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yurtimizda gimnastikaning barcha turlariga e'tibor yuqori darajada ekanligi ayniqsa trampolin yo'nalishi bo'yicha barcha viloyatlar, shaharlarda sharoitlar bor va turli xil musobaqalar o'tkazilib kelinmoqda. Bu musobaqalarning maqsadi yosh sportchilarni qobiliyatlarini shakillantirib yanada ham bu sport turiga qiziqishlarini oshirish va kelgusida olimpiya zahiralarini shakillantirishdan iboratdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. I.Morgunova. Gimnastika o‘quv qo‘llanma .Toshkent -2017
2. Khairullo, A., & Mohinur, R. (2022). Analysis of Physical Development Indicators. Eurasian Research Bulletin, 13, 8-14.
3. Boqijonov, F. A., Nazirova, M. R., & Mamadaliyev, D. D. (2024). HYGIENIC ASSESSMENT OF THE LEVEL OF ATMOSPHERIC AIR POLLUTION. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(01), 66-68.
4. Matxoshimov, N. S., & Boqijonov, F. A. (2022). MEHNATGA LAYOQATLI YOSHDAGI AHOLINING NOGIRON BO ‘LISH EHTIMOLLI GI VA UNING PROGNOZI (FARG ‘ONA VILOYATI MISOLIDA). Новости образования: исследование в XXI веке, 1(3), 452-455.
5. Farrux azizjon o‘g‘li, B., & Tavakkal o‘g‘li, I. D. (2024). ATMOSFERA HAVOSI HOLATINING AHOLI SALOMATLIK DARAJASIGA TA‘SIRINI GIGIYENIK BAHOLASH. IQRO INDEXING, 7(2).
6. OGLI, B. F. A. (2024). HYGIENIC ASSESSMENT OF THE PROBABILITY OF DISABILITY OF THE WORKING AGE POPULATION. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(02).
7. ogli Bokijonov, F. A. (2024). ANALYSIS OF DEASES IN ELDERLY AND SENILE PERSONS, AFFECTING ACTIVE WORK ACTIVITY. Innovative Development in Educational Activities, 3(1), 360-364.
8. Farrux azizjon o‘g‘li, B. (2023). ATMOSFERA HAVOSI IFLOSLANISHINI AHOLI SALOMATLIGIGA TA‘SIRINI GIGIYENIK BAHOLASH (FARG ‘ONA SHAHAR MISOLIDA). JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(5), 648-653.

## “TANOVAR” – BU HAQIQIY FALSAFIY ASAR

**Qambarov Abdumutal Ahadjonovich**

*Farg‘ona davlat universiteti falsafa kafedrasi professori,  
falsafa fanlari doktori (DSc)*

**Tojimamatova Odina**

*Marg‘ilon shaxar 8-BMSM o‘qituvchisi  
FarDU magistri*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada o‘zbek ijrochilik san‘atida keng tarqalgan xalq va mumtoz aytim-ashula va cholg‘u yo‘llarida ijro etiladigan janrlardan biri “Tanovar” haqida ma‘lumot beriladi. “Tanovar” o‘zbek xalqi ongida tarix, o‘zlik, ijtimoiy, hissiy, milliy o‘ziga xos xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan falsafiy asar bo‘lib, bu ijod o‘zbek xalqining og‘zaki va kasbiy ijodiyoti faoliyatidir. Shuningdek, ushbu maqolada XIX asr oxirida o‘zini namoyon qilgan va bugungi kungacha rivojlanib kelayotgan o‘zbek musiqa folklorining namunalaridan biri ekanligi tahlil qilinadi.*

**Аннотация.** *В данной статье представлена информация об одном из жанров «Тановар», который широко используется в узбекском исполнительском искусстве, исполняется в народных и классических народно-музыкальных формах. «Тановар» - философское произведение, воплощающее в сознании узбекского народа историю, самобытность, социальные, эмоциональные, национальные особенности, и это произведение является деятельностью устного и профессионального творчества узбекского народа. Также в данной статье анализируется, что это один из образцов узбекского музыкального фольклора, возникший в конце XIX века и развивающийся по сей день.*

**Annotation.** *This article provides information about one of the genres “Tanovar”, which is widely used in Uzbek performing arts, performed in folk and classical folk music forms. “Tanovar” is a philosophical work that embodies history, identity, social, emotional, national characteristics in the consciousness of the Uzbek people, and this work is an activity of oral and professional creativity of the Uzbek people. This article also analyzes that this is one of the examples of Uzbek musical folklore, which arose at the end of the 19th century and is developing to this day.*

**Kalit so‘zlar:** *tanovar, aytim-ashula va cholg‘u yo‘llari, o‘zbek musiqa folklori, musiqa, ijro, qalb, dard, orzu-armonlar, shodligiyu quvonch, nafosat va nazokat, baxt va qudrat.*

**Ключевые слова:** *тановар, песни и музыкальные инструменты, фольклор*

*узбекской музыки, музыка, исполнение, сердце, боль, мечты, счастье и радость, изящество и грация, счастье и сила.*

**Key words:** *tanovar, songs and musical instruments, folklore of Uzbek music, music, performance, heart, pain, dreams, happiness and joy, elegance and grace, happiness and strength.*

## **KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)**

Istirobli dardlarni o‘z ichiga olgan bir kuy borki, bu kuy “Tanovar” deb nomlanadi. Tanovar qadimda ichkarida azob chekkan ayolning sevgisi ma’n qilingan, doimo pinhon saqlashga majbur etilgan muxabbat haqidagi kuydur. Shuningdek, o‘zbek ijrochilik san’atida keng tarqalgan xalq va mumtoz aytim-ashula va cholg‘u yo‘llaridir.

Odatda “Tanovar” iborasi ikki so‘zdan tashkil topgan: “Tan” jismni, “Ovar” – esa zavq olib kelish ma’nolarini kelsa, boshqa bir manbada “Tanovar” – forscha so‘z bo‘lib “Jasur, qudratli, kuchli” degan ma’nolarni anglatgan. Farg‘ona vodiysida “Tanovar” keng tarqalgan bo‘lib, o‘n beshdan ortiq ashula va cholg‘u yo‘llari ma’lum. Bugungi kunda “Tanovar”ning ashula yo‘llari ommaviylashgan.

Tanavor o‘ninchi bor, yuzinchi bor ijro etilsin, baribir har gal yurakni nishonga oladi. U tog‘lar vodiysidan, maysalar bag‘ridan uchib borayotganday. Sharsharalar tog‘lardan qoyama-qoya tushib kelayotganday. Oppoq yelkanli kemaday to‘lqinlar ustida suzib borib, dengizga tushadi. Go‘yo humo qush sohilga kelib qo‘nganday. Bir ta’zim, bir tabassum bilan Sizni maftun etadi[1,6].

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ /METHODS)**

Tanovar XX asrda N.Mironov, V.Uspenskiy, YE.Romanovskaya, A.Kozlovskiy, Y.Rajabiy tomonidan nota olingan. Kompozitor A.Kozlovskiy 1936 yili H.Nosirova ijrosida “Tanovar”ni nota olib, uning asosida xonanda va simfonik orkestri uchun qayta ishlagan (ushbu asar Halima Nosirova ijrosida A.Kozlovskiy dirijyorligida simfonik orkestri jo‘rligida tinglovchilarga taqdim etilgan).

Keyinchalik kompozitor ushbu kuy asosida “Tanovar” simfonik poema (1940) va “Tanovar” baleti (1971)larini ijod etgan. “Tanovar” asosida Tolibjon Sodiqov xonanda va orkestr uchun asar, Mutal Burhonov “Endi sendek” ashulani jo‘rsiz xor uchun qayta ishlab, o‘ziga xos original asar yaratgan. Muxtor Ashrafiy va S.Vasilenkolarning “Bo‘ron” operasida ham “Tanovar” ashulasi qo‘llanilgan. A.Nabiyev “Tanovar”ni fortepiano uchun qayta ishlab o‘ziga xos asar yaratgan. “Tanovar” – o‘zbek san’ati va madaniyati ommaviy tus olgan asar bo‘lib, ko‘pgina

xonanda va sozandalar ijrochiligida, o‘zbek bastakorlari va kompozitorlari ijodidan o‘rin olgan.

“Tanavor”ning xalq so‘zi bilan ijro etiladigan “Qora soch”, “Adolcha tanovar”, “Sumbula”, Muqimiy g‘azali bilan “Endi sendek” kabi variantlari dutor jo‘rnavozligida talqin etilgan bo‘lib, keyinchalik uning mumtoz ashula, katta ashula va cholg‘u yo‘llari shakllangan. Tanavorning cholg‘u yo‘llaridan “Gulbahor” kuyi bilan ketma-ket ijro etiladigan “Gulbahor va tanavor”, katta ashula yo‘lida “Yovvoyiy tanovar” (“Asl yorim”), “Farg‘onacha tanovar”, “Qo‘qon tanovari”, “Marg‘ilon tanovari”, “Namangan tanovari” (Kamoliddin Raximov ijrosida), “Yangi tanovar” (“Sarbon” guruhi ijrosida), ashula bastakorlik ijodiyotida (“Ulkun jonon” – B.Mirzayev, “Yovvoyiy tanovar” – Jo‘raxon Sultonov, “Tanovarni tinglab” – A.Ismoilov), bugungi kunda xonanda Jo‘rabek Qodirov ijrosida tanovar usulida “Tanovar” qo‘shig‘i kabi lokal variantlari ijod etilib, xalqimiz orasida ommalashib ketgan. Shuningdek, “Tanovar”ning cholg‘u yo‘li dutor, tanbur, g‘ijjak, changda ijro etilgan, jumladan, “Qo‘qon tanovari” dutor uchun, “Turg‘un tanovari” dutor, tanbur va sato uchun, “Gulbahor va tanovar” chang uchun (Gulbahor kuyi “Dugoh-Husayniy IV” ohangi asosida ham ijod etilgan).

O‘lmas “Tanovar”lardan – “Endi sendek”, “Gulbahor va tanovar”, “Marg‘ilon tanovari”, “Qo‘qon tanovari”, “Farg‘onacha tanovar”lar zamonaviy madaniyat va san‘at rivojidan uzoqlashib, iste‘dodli xonanda va sozandalar, raqqos va raqqosalarimiz e‘tiboridan chetda qolib ketayotgani bizni tashvishga solmoqda.

Tanavor ashulalarida o‘zbek qizining ma‘naviy go‘zalligi o‘z aksini topgan. Shuningdek, unda o‘zbek qizining sevgilisi bilan uchrashish va visolga yetishi muqarrarligi aks ettiriladi. Shular ichida “Adolcha tanovar” o‘zgacha tarixga egadir.

Tadqiqotchi Iroda G‘aniyeva o‘zining “Tanovarlar” kitobida yozishicha, “...O‘tmishda Adolat ismli go‘zal, nixoyatda oqila va maxzun ovozi qiz bo‘lgan ekan. Uning honishini tinglagan xar bir inson yana bir tinglash ishtiyoqiga giriftor bo‘lar ekan. Qizning honishidan xabar topgan zamonasining zodagonlaridan birining ishqi Adolatga tushadi va o‘z maqsadiga erishish niyatida ko‘p harakat qiladi, lekin natijasiz qoladi. O‘z sevgisiga sodiq bo‘lgan Adolat zodagonga rad javobini beradi. Bundan xabar topgan zodagan qattiq ranjyidi va qizni qatil qilishga buyuradi. Adolat o‘limi oldidan oxirgi istagini ado etishlarini o‘tinib iltimos qiladi. Rozilik berilgandan so‘ng, u dutor keltirishlarini so‘raydi va unga dutor keltirib berishadi. Adolat dutorning sehrli torlarini chertib, kuylay boshlaydi qo‘shiqni tinglagan jallodlarning qurollari qo‘llaridan tushadi, dillarini eritgan oxang soxibasini o‘ldirishga qo‘llari bormaydi. Qalblarining amri bilan bu ishni bajarishdan bosh tortishadi. Shunda Adolatning zolim akasi qo‘liga qurol olib, singlisini o‘ldiradi. Paranja ostida oxirgi

nafasda, o‘z sevgisiga sodiq qolgan Adolat: - “Sen ayrilma mendan, men ham sendan...” deb jon beradi. Uning aytgan qo‘shig‘i kishilar qulog‘ida qoladi. Xalq orasida kuylanib og‘izdan-og‘izga o‘tib, Adolatning musaffo sevgisi qo‘shiq misolida davom etadi”. Shu tariqa Adolatxon aytgan qo‘shiq xalq orasida keng tarqalib, “Adolat tanovari” deb nom olibdi. Bu ayollarning dardini tushunish uchun Adolatxondan qanchadan qancha zolimlar qo‘lida azob chekkan ichkarilarda zulmat qo‘ynida turgandek kun kechirgan yuzlab ayollar tilidan kuylangan erk qo‘shiqchilarning baxtga mushtok istirob to‘la misralarini bilish, ularning o‘ziga xos ijro yo‘llaridan xabardor bo‘lish darkor.

### **NATIJALAR (PEZYJBTATY/RESULTS)**

“Tanavor”ning xalq so‘zi bilan ijro etiladigan “Qora soch” ya’ni, “Adolcha tanovar” aslida barcha “Tanovar”ga yo‘l ochib umrboqiy qo‘shiqlar hazinasiga olib kirdi”. Jumladan, O‘zbekiston xalq hofizi 1948 yilda Jo‘raxon Sultonov sevib, yalla uslubida ijro etgan “Asl yorim” deb boshlanadigan “Yovvoyi tanovar”ning o‘ziga yarasha falsafiy ma’nosi bor. Uning “Yovvoyi tanovar” deyilishiga sabab u yovvoyi uslubda ijro etilgan. YA’ni, hofizlarimiz bu qo‘shiqni erkin, qalb nidolarining to‘laligicha va uni har tomonlama ochishga, bayon etishga harakat qilganlar. Bugungi kungacha “Yovvoyi tanovar”ni Ustoz hofizdan tashqari O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Abdulla Shomag‘rupov, xonandalar Boqijon Sattorov, Feruza Raximova ijro etishgan.

Tanovar kuyini yoki ashulasini tushunish emas uni faqatgina xis qilish mumkin xolos. Tanovar kuyini tinglagan inson sekin asta o‘yga cho‘madi, ashulasini eshitib esa qalbi o‘rtanadi ammo, “Tanovar” raqsini ko‘rganda butun badani dir-dir titray boshlaydi. Chunki bu erk qo‘shig‘i, qalb nolasi, yuraklar orzusidir. Kuyida eshitilsa, ashulasida xis qilinsa, raqsida esa o‘sha dard chekkan ayol ko‘riladi. Tanovar sevgini ochiq izxor etish haqidagi orzudir. Tanovar raqsi ham o‘ziga xos tarixga ega.

1930 yil Moskvada qo‘yilayotgan konsertlarning biriga taniqli o‘zbek raqqosasi Mukarrama Turg‘unboyeva ham tashrif buyuradi va u yerda ajoyib rus balerinasini Gelsler ijrosida “O‘layotgan oqqush” baletini ko‘radi bu balet Mukarrama Turg‘unboyevada juda katta taassurot qoldiradi, qalbini to‘lqinlantirib yuboradi, mashaqqatli mehnatda chidamli bo‘lishga undaydi. Shundan so‘ng Mukarramaxonim o‘zbek raqsida ham mana shunday o‘tli raqsni yaratishni va ijro etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Raqqosa Moskvadan qaytib kelishi bilan butun Farg‘ona vodiysi bo‘ylab kuyi, ohangi, mazmuni bilan bir-biriga o‘xshaydigan ayollar qo‘shig‘ini yig‘a boshladi va usta raqqosalar hamda qo‘shiqchilar bu o‘ziga xos ayollar qo‘shiq – raqs janrini “Tanovar” deb atashlarini aniqlaydi. Tanovar ustida u

juda ko‘p ishlaydi xar bir qo‘shiq mazmunini muntazam o‘rganib chiqadi va shu asosida 1943 yilda “Tanovar” raqsini yaratadi.

#### MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Asli tanovar so‘zi amaliy san’atdan kelib chiqqan va iste’molga kirib kelgan. Jumladan, xalq xunarmandchiligi kosibchilik amaliyotida xomashyo bilan ishlashining ilk jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, oddiy terini moslab (oshlab) berish bilan natijasida, masalan, tikilgan mahsi va kovushning yurganda g‘ich-g‘ich tovushlarini chiqishi “Tanovar” deyilgan. Bu fikrlarni O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, professor Temur Maxmudov ham ma’qullagan holda uni quyidagicha izoxlaydi: “Mening fikrimcha, Mukarrama opa o‘z raqsini “Tanovar” deb atashini sababi Farg‘ona vodiysida ayollar ijro etadigan kuy qo‘shiqlarning umumiy nomi “Tanovar” bo‘lganligi uchun emas, balki bu raqsning birinchi ijrosi vaqtida maxsi-kovush kiyib raqs ijro etilgan, ana o‘shanda maxsi-kovushning g‘irchillashi raqqosaga ritm berib turgan, shu davrlarda maxsido‘z kosiblar bu g‘irchillashni tanovar deb atashgan. Balki shu sababdan Mukarrama opa ham o‘z raqsini “Tanovar” deb atagan bo‘lsa ajab emas”.

Mukarrama Turg‘unboyeva 1943 yili sahnalashtirgan “Tanavor” raqsi bugungi kunda keng tarqalgan. U o‘z davrining va hozirgi kunda ham an’anaviy ijrosini saqlab kelayotgan “Tanavor” – raqs dostonidir. Bu raqs juda oddiy va yengil harakatlardan tashkil topganga o‘xshasa-da, undagi lirik qahramonning ruhiy olami, his-tuyg‘ulari, boy qalbi, nozik tebranishlari barchani maftun etib kelgan. U ham mazmunan, ham shaklan, ham ijro jihatidan boshqa raqslardan o‘zining jilosi bilan ajralib turgan.

“Har bir ijodkor san’atining jilg‘asi hisoblanadigan ixtirosi bo‘ladi, - deb yozgan edi atoqli shoiramiz Zulfiya, - Mukarramaxonimning ajoyib asarlari bor, lekin bu san’atkor ijodining, mening nazarimda jilg‘asi “Tanovar”dir. “Tanovar”ni hech kim, hech qachon, hech qayerda Mukarramaxonimdek latofat va nazokat, mahorat va dardli harorat bilan ijro etmagan”.

San’atshunoslik fanlari doktori Lyubov Abdeyeva ham o‘z estaliklarida “Tanovar” xaqida shunday yozadi. “Bu raqs – dildagi dardni izxor etuvchi, saodatni orzu qiluvchi, yolg‘izlikdan sevgilisi tomon, insonlar tomon intilishdek otashin ishtiyoq yashiringan qalb eshigini lang ochish raqsidir”.

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, Akbar Mo‘minov ta’kidlaganidek, - “Tanovar bu oddiy raqs emas uni xar kim ham ijro etaversa to‘g‘ri bo‘lmaydi. Mukarrama opa xayotlik davrlarida ham ko‘pchilik raqqosalar bu raqsni harakatlarini maxorat bilan ijro etishardi lekin, tomoshabinlarni Mukarrama opaning ijrosi qiziqtirardi. Negaki opa “Tanovar”ni ijro etishni boshlaganda butkul tashqi

olamni unutib, faqat shu raqs va uning dardi bilan yashardi. Opa bu raqsni ijro etib bo'lgach bir qancha vaqtgacha shu obrazdan chiqa olmasdi. Bunday ijro xar kimga ham nasib etavermaydi”.

Aslida asar nomi “doira usuli bo'lgan “tan-tan” (bum-bak) sadosidan olingan. “Tanovar” sho‘x doira usullariga asoslangan asar demakdir. Shu bois, “Tanovar” atamasi tantanavor tarzda talqin qilinmasligi kerak. Ana shunday ma'lumotlarni berish o'quvchilarning musiqa san'ati bo'yicha bilim va ko'nikmalarini kutilgan darajada rivojlantiradi.

Mukarrama opa o'zining “Bahor”i bilan dunyo kezdi. Undan juda katta madaniy-ma'rifiy meros qoldi. Bu xalq orasiga, ongi shuuriga singib ketgan bir-biridan go'zal va jozibali raqslardir. Ularning har birini shovullab oqayotgan daryoga qiyoslash, mahzun taralayotgan qo'shiqqa bezash mumkin. Opa yaratgan har bir raqsda o'zbek ayolining qalbi, dardi, orzu-armonlari, shodligiyu quvonchi, nafosati va nazokati, baxti va qudrati manaman deb bo'y ko'rsatib turadi. Shu bilan birga “Bahor”dan qolgan bu boy merosda Mukarrama Turg'unboyevaning ovozi, nafasi, yurak harorati sezilib turadi.


#### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION)**

Xulosa qilib aytganda tanovar yo'llariga ko'pgina o'zbek xonandalari va bastakorlari yondoshgan holda uning noyob va o'zgacha ijod va ijro talqinlarini yaratilishiga muvaffaqiyat bo'lishgan. Bu asar mazmunan, shaklan va o'zining kuychanligi, hayajonligi bilan ajralib turadi. Kuyning keng rivoji, ohanglar bezaklar bilan ko'proq boyitilishi, ohangning sadolanishi asarning ehtirosli, shirador va ta'sirchanligi chiqishi tinglovchiga zavq-shavq va xuzur baxsh etadi. Tanovarning mumtoz ashula yo'llarida yuqorida aytib o'tganimizdek, - o'zbek ayolining ma'naviy go'zalligi o'z aksini topgan.

Tanovarning boshlang'ich ohanglari, mustasnosiz, o'rta pardalarda joylashgan bo'lib, ijro jarayonida asta-sekin rivojlanib (kuy diapazoni kengayib), avj qismida o'zining ta'sirchanlik holatiga olib keladi. Unda tinglovchini ham, ijrochini ham hayajonli bir tuyg'uni his etishiga va ikkiyoqlama jonli va dardli xususiyat kasb etadi. Umuman olganda ashulaning har bir obrazi va har bir shakl tuzilmasi tarkibida insonning ma'naviy dunyosi o'z aksini topadi. “Tanovar” – bu musiqiy shakl va usulning hamda dutor sozi nomini ham bildiradi.

Tanavor o'zbek xalqi ongida tarix, o'zlik, ijtimoiy, hissiy, milliy o'ziga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etgan falsafiy asar bo'lib, bu ijod o'zbek xalqining og'zaki va kasbiy ijodiyoti faoliyatidir. Shuningdek, XIX asr oxirida o'zini namoyon qilgan va bugungi kungacha rivojlanib kelayotgan o'zbek musiqa folklorining namunalaridan biri.





Bugungi kunda barcha “Tanovar”larga bir tomonlama yondoshmasligimiz kerak. Ularda nafaqat o‘tmish hayotimizning og‘ir damlari, balki bir-biridan chiroyli va go‘zal orzu-niyatlari, hayot kechinmalari va jng shirin, lazzatli daqiqalari joy olgan. “Tanovar”larni o‘rganish jarayonida ma’lum bo‘lmoqdaki, ularning oxiri yo‘q ekan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Охунова Э. Биз сув ичган дарёлар. Рақс ҳам шеърятдир. – Тошкент. Ўзбекистон. 2006. –Б. 6
2. Рахимов А. Мукаррамахоним “Тановар”и. –Тошкент: Мухаррир нашриёти. 2018. – Б. 43
3. Erkinjon o‘g‘li, L. A. (2024). SUYAK QADIG‘I HOSIL BÒLISH PATOLOGIYALARNI ERTANGI DAVRLARDA ANIQLASH VA DAVOLASH. YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 143-147.
4. Eminov, R. I., Latibjonov, A. E., G‘Ulomov, Q. Q., & Umarova, S. D. (2022). EVALUATION OF THE ROLE OF MULTIMEDIA IN TEACHING EMBRYOLOGY. Экономика и социум, (12-1 (103)), 59-62.
5. EMINOV, R., LATIBJONOV, A., G‘ULOMOV, Q. Q., & UMAROVA, S. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. ЭКОНОМИКА, 59-62.